



Inter-Parliamentary Union

For democracy. For everyone.



**UNHCR**  
The UN Refugee Agency



# Fuqarolik va fuqarolikka ega emaslik

## Minnatdorlik

Ushbu qo'llanma Parlamentlararo ittifoqning Xalqaro gumanitar huquqqa hurmatni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

### Tadqiqot va tahlil:

**Birinchi nashr (2005):** Kerol Bachelor va Filipp Leklerk (BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi)

**Ikkinchi nashr (2014):** Mark Manley va Rada Govil (BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi)

**Muallif:** Merilin Akiron, shuningdek, Rada Govil tomonidan tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

### Ikkinchi nashrning tahrir hay'ati a'zolari:

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan: Mark Manley, Rada Govil, Janice L. Marshall va Xose Riera

Parlamentlararo ittifoqdan: Anders B. Jonson, Karin Jebr va Nora Babich

Nashrning asliyatdagi matni ingliz tilida tayyorlangan.

Muqova dizayni Lyuksemburdagi "ImprimerieCentrale" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Kitobning o'zbek tilidagi tarjimai O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, yuridik fanlar doktori, professor **Akmal Xolmatovich Saidovning** umumiy tahriri ostida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazida nashrga tayyorlandi.

**Dizayner va sahifalovchi:** BakOS Design

# Mundarija

Kirish so'zi .....	4
Muqaddima.....	6
<b>Fuqarolik huquqini belgilash va fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish uchun xalqaro huquqiy baza .....</b>	<b>8</b>
<b>Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ta'rifi va himoyasi.....</b>	<b>18</b>
<b>Fuqarolikka ega emaslikning oldini olish.....</b>	<b>29</b>
<b>BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining roli .....</b>	<b>42</b>
<b>Parlament a'zolari qanday yordam berishi mumkin? .....</b>	<b>48</b>
<b>1-ilova</b>	
1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar .....	55
<b>2-ilova</b>	
1961-yilda qabul qilingan Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar.....	59
<b>3-ilova</b>	
1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo bo'lish uchun taqdim etiladigan hujjat namunasi .....	62
1961-yilda qabul qilingan Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo bo'lish uchun taqdim etiladigan hujjat namunasi .....	63
<b>Parlamentlararo Ittifoq hamda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi haqida qisqa ma'lumot.....</b>	<b>64</b>

# Kirish soʻzi

2005-yilda ushbu qoʻllanmaning birinchi nashri chop etilganidan beri parlament aʼzolari fuqarolikka ega emaslikka global javob berishda samarali natijalarga erishish uchun kuchlarini birlashtirdilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqarolikka ega emaslik toʻgʻrisidagi konvensiyalariga qoʻshilgan mamlakatlar soni sezilarli darajada oʻsdi, shuningdek, fuqarolikka ega emaslikning yangi holatlari paydo boʻlishining oldini olish va uzoq vaqtdan beri mavjud boʻlgan fuqarolikka ega emaslik holatlarini hal qilish uchun milliy fuqarolik qonunchiligini isloh qilish tendensiyasi kuzatildi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini rasmiylashtirish va hujjatlarni rasmiylashtirish tizimini mustahkamlash borasidagi ishlar ham kuchaytirildi.

Shu bilan birga, fuqarolikka ega emaslik hali ham mavjud va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar boʻyicha Oliy komissari boshqarmasi (BMT QOKB) tomonidan baholanishicha, ushbu holat jahon miqyosida kamida 10 million odamga taʼsir qiladi. Har yili oʻn minglab bolalar ota-onasining fuqaroligi yoʻqligi sababli fuqaroligi boʻlmagan holda tugʻiladi. Fuqarolikka ega emaslik holati kamsitish yoki oʻz boshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum qilish, davlatlardagi huquqiy vorislik vaziyatlari, fuqarolik holatini qayd etishning notoʻgʻri jarayoni, fuqarolik hujjatlarini olish muammolari va fuqarolik qonunlaridagi kamchiliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Fuqaroligi boʻlmagan shaxs – hech qanday davlat tomonidan fuqaro deb hisoblanmagan shaxs; fuqarolikka ega emaslik shaxslar, ularning oilalari va jamiyatlari hayotiga halokatli taʼsir koʻrsatadi. Fuqarolik odamlarga nafaqat biror davlatga mansublik hissini beradi, balki ularning davlat tomonidan toʻliq himoyalaniishi, shuningdek, taʼlim olish, sogʻliqni saqlash, rasmiy mehnat qilish, mulkka egalik qilish, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish va harakat erkinligi kabi koʻplab inson huquqlari taʼminlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fuqarolik huquqining asosiy ahamiyati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida va inson huquqlari boʻyicha keng eʼtirof etilgan koʻplab hujjatlarda taʼkidlangan. Agar hal qilinmasa, fuqarolikka ega emaslik ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga koʻmaklashuvchi saʼy-harakatlarni sezilarli darajada susaytirishi va hatto zoʻravonlik, nizolar va koʻchishlarga olib kelishi mumkin.


Baʼzi fuqaroligi boʻlmagan shaxslar qochqiniga aylanishga majbur boʻlishsa-da, ularning aksariyati oʻzlari tugʻilib oʻsgan va umrining koʻp qismini oʻtkazgan mamlakatlarda istiqomat qilmoqda. Uzoq vaqt davomida fuqarolikka ega boʻlmasdan yashayotgan odamlarning ahvolini yaxshilash uchun koʻproq harakat qilish kerak, chunki bu inson huquqlariga ziddir. Bu muammoni hal qilishning asosi davlatlarning siyosiy irodasi va kelishilgan harakatlari boʻlishi kerak.

Ushbu qo'llanmaning nashr etilishi BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining kelgusi o'n yil ichida fuqarolikka ega emaslikka barham berish kampaniyasining boshlanishi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Parlament a'zolarining faoliyati ana shu yuksak maqsadga erishishda asosiy omil hisoblanadi. Parlament a'zolari xalqaro huquq normalariga mos keladigan yangi qonunlar qabul qilish, shuningdek, ularning qo'llanilishini ta'minlash orqali fuqarolikka ega emaslikka barham berishga ko'maklasha oladi. Milliy darajadagi qonunchilik o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum qilinmaslikni, erkaklar va ayollarning teng fuqarolik huquqlarini, agar ota va ona fuqaroligi bo'lmagan holda qolsa, bolalarga fuqarolik berilishini ta'minlashi kerak. Shuningdek, parlament a'zolari o'z davlatlarini ushbu muammoni xalqaro miqyosda hal etish bo'yicha kelishilgan harakatlar uchun asos bo'lgan BMTning fuqarolikka ega emaslik to'g'risidagi konvensiyalariga qo'shilishga chaqirishlari mumkin.

Parlamentlararo ittifoq va BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi hamkorligida chop etilgan "Fuqarolik va fuqarolikka ega emaslik" nomli qo'llanmaning ushbu yangilangan nashrida bugungi kunda fuqarolikka ega emaslik, xalqaro huquqiy doktrinada sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ijobiy misollar va mumkin bo'lgan yechimlar haqida barcha zarur ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, qo'llanmada parlament a'zolari, hukumat rasmiylari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa subyektlar tomonidan fuqarolikka ega emaslik muammosini bartaraf etish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar bo'yicha takliflar bildirilgan. Ishonchimiz komilki, ushbu nashr fuqarolikka ega emaslik muammosini hamda uning millionlab erkaklar, ayollar va bolalar hayotiga halokatli ta'sirini kamaytirish va pirovardida ushbu muammoga butunlay barham berish uchun foydali vosita bo'lib xizmat qiladi.



Anders B. Jonson  
Parlamentlararo ittifoq  
bosh kotibi



Antonio Guterres  
Birlashgan Millatlar Tashkilotining  
Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari

# Muqaddima

Biz biron bir mamlakat fuqarolari sifatida ko'pincha fuqarolik maqomi bizga beradigan huquq va majburiyatlarni odatiy holdek qabul qilamiz. Ko'pchiligimiz farzandlarimizni maktabga yuborishimiz, kasal bo'lib qolganimizda davolanishimiz, ishga kirishimiz va hukumatga nomzodlar uchun ovoz berishimiz mumkin. Biz yashayotgan mamlakat hayotidagi ishtirokimizni, shuningdek, alohida mavjudlikdan ko'ra muhimroq narsaga mansub ekanligimizni chuqur his qilamiz.

Ammo fuqaroligi yo'qlarning hayoti qanday? Busiz, shaxs o'zi yashayotgan mamlakatda ovoz bera olmaydi, sayohat hujjatini ololmaydi, turmush qura bilmaydi. Ba'zida tug'ilgan mamlakati yoki oldingi yashash joyidan tashqarida bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uzoq vaqt davomida asossiz ushlab qolinishi mumkin, chunki yuqorida qayd etilgan davlatlar o'z hududiga qayta kirishni rad etishlari mumkin. Ko'pincha, o'z yashash mamlakati bilan bog'liqligini isbotlay olmagan odamlar hatto eng oddiy inson huquqlari – ta'lim, sog'liqni saqlash va ishga joylashish huquqidan ham mahrum bo'lishadi.

Dunyoning hech bir mintaqasi fuqarolikka ega emaslikka olib keladigan muammolardan xoli emas. Biroq dunyo bo'ylab fuqaroligi bo'lmagan odamlarning aniq soni noma'lumligicha qolmoqda. Davlatlar ko'pincha aniq ma'lumotlarni taqdim eta olmaydi yoki xohlamaydi, faqat bir nechtasida fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ro'yxatga olish mexanizmlari mavjud va shaxslarning o'zi ko'pincha xavfsiz yashash joyi yo'qligi sababli o'zini tanishtirishni istamaydi. Shu bilan birga, tobora ko'payib borayotgan davlatlar o'z hududidagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini hisoblash uchun BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlik qilmoqda. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining hisob-kitoblariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar hech qanday fuqaroliksiz yashaydi.

Ilk bor XX asrning birinchi yarmida global muammo sifatida e'tirof etilgan fuqarolikka ega emaslik turli davlatlar qonunchiligidagi kamchiliklar va ular o'rtasidagi ziddiyatlar, davlatlar vorisligi, ma'lum bir jamoaga nisbatan uzoq davom etgan kamsitish yoki ayrim shaxslar yoki odamlar guruhlarining o'z jamoalaridan ajratilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Odatda, fuqarolik yo'qligi xalqaro munosabatlardagi tub o'zgarishlar davrlari bilan bog'liq. Davlat chegaralarini o'zgartirish, siyosiy rahbarlar tomonidan shubhali siyosiy maqsadlarga erishish uchun siyosiy tizimlarni manipulyatsiya qilish va/yoki irqiy, diniy va etnik ozchiliklarga nisbatan kamsitishlar dunyoning barcha mintaqalarida fuqarolikka ega emaslikning paydo bo'lishiga olib keldi. So'nggi 20 yil ichida fuqarolikdan mahrum bo'lgan yoki uni ololmaganlar soni ortib bormoqda. Agar biz bu holatlarning davom etishiga yo'l qo'ysak, fuqaroligi bo'lmagan aholi o'rtasidagi huquqdan mahrum bo'lish hissi oxir-oqibat ko'chish va nizolarga olib kelishi mumkin.

Ushbu qo'llanma parlament a'zolariga fuqarolik va fuqarolikka ega emaslik masalalarini tartibga soluvchi xalqaro tamoyillar haqida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan. Davlatlar mamlakatning asosiy fuqarolik aholisini, shuningdek, fuqarolikni berish, uni yo'qotish va tiklash shartlarini belgilashda alohida vakolatlarga ega. Biroq XX asrda ishlab chiqilgan inson huquqlari tamoyillari, agar ularning amalga oshirilishi fuqarolik yo'qligi va/yoki kamsitish natijasida kelib chiqsa, ushbu vakolatlarni cheklashi mumkin.

Davlatlar fuqarolik yo'qligi muammosini hal qilish uchun birgalikda harakat qilishsa-da, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar hali ham fuqarolikka ega emas. Ushbu qo'llanmada fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning xalqaro huquq, xususan, Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi 1954-yilgi konvensiya doirasidagi huquq va majburiyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu konvensiya fuqarolikka ega emaslikning asosiy sabablarini ta'kidlab o'tadi va davlatlarning milliy qonunchiligi loqaydlik tufayli fuqarolikka ega emaslikka olib kelmasligi uchun ular qo'llanilishini qanday tashkil etish mumkinligini ko'rib chiqadi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (BMT QOKB) fuqarolikka ega emaslikning oldini olish va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga uni olishda yordam berish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi agentlikdir. Mazkur qo'llanma BMT QOKB tomonidan ushbu vazifalarni bajarish uchun amalga oshirilgan harakatlarni tavsiflaydi. Shuningdek, parlament a'zolari fuqarolik to'g'risidagi qonunlarni qayta ko'rib chiqish va kerak bo'lganda ularga o'zgartirishlar kiritish orqali fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirish uchun ko'rishi mumkin bo'lgan amaliy choralarni taklif qiladi. Parlament a'zolari davlatlarni fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga aloqador xalqaro hujjatlarga a'zo bo'lishga undashi va fuqarolikka ega emaslik muammolari haqida global xabardorlikni oshirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, ushbu qo'llanmada davlatlarning siyosiy irodasi, fuqarolik jamiyati sa'y-harakatlari va xalqaro hamjamiyatning yordami bilan uzoq muddatli fuqarolikka ega emaslik holatlari qanday hal etilganiga oid ijobiy misollar keltirilgan. Ushbu foydali tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat, jamiyat va xalqaro hamjamiyat birgalikda harakat qilisa, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar alal-oqibat fuqarolikni olish huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

**” Men o'zim yashayotgan, tug'ilgan mamlakatdan “yo'q” javobini eshitdim, men ajdodlarim yashagan mamlakatdan “yo'q” javobini oldim, men doimo “sen bizning bir qismimiz emassan” degan so'zlarni eshitdim! Men o'zimni hech kimday his qilmoqdaman, hayotning mazmunini ko'rmayapman. Fuqarolikka ega bo'lmaslik o'zini foydasiz his qilish demakdir”.**

---

Lara, sobiq fuqaroligi bo'lmagan shaxs

**” Fuqarolikdan mahrum bo'lish – g'or odamlarining yovvoyi hayotiga qaytish bilan bir xil... Siz boshqalarni sizni o'ziga teng deb bilishiga majbur qiladigan hamma narsani yo'qotganga o'xshaysiz... Fuqaroligi bo'lmagan shaxs iz qoldirmasdan, umumiy hayotimizga hissa qo'shmasdan yashashi va o'lib ketishi mumkin”.**

---

Xanna Arendt, “Totalitarizmning yuksalishi” kitobidan

# Fuqarolik huquqini belgilash va fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish uchun xalqaro huquqiy baza



📍 Bangladeshning Shamlapur shahri qirg'oqbo'yi hududlarida fuqarolikka ega bo'lmagan yuz minglab rohinja musulmonlari yashaydi. Ularning ko'pchiligi qayiq egalariidan qarzdor va bu qarzlar yil sayin ortib bormoqda. ©BMT GOKB/Greg Konstantin, 2010

Millat masalasi – nozik masala, chunki fuqarolikka ega emaslik mamlakatga mansublik va o'z-o'zini identifikatsiya qilishning namoyonidir. Shu sababli, fuqarolik masalalari bo'yicha kelishmovchiliklar ko'pincha davlatlar ichida ham, davlatlar o'rtasida ham keskinlik va nizolarga olib kelishi va olib kelayotgani ajablanarli emas. Yigirmanchi asr davomida butun dunyo bo'ylab fuqarolikka ega emaslik holatlarining ko'payishi kuzatildi, ammo inson huquqlari va ularga rioya qilish to'g'risida xabardorlik ortdi. Shunday qilib, xalqaro fuqarolik huquqi ikki yo'nalishda rivojlandi:

- fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish va ularga yordam berish;
- fuqarolikka ega emaslik holatlarini bartaraf etish yoki hech bo'lmaganda kamaytirish.

## **Jismoniy shaxs biron bir davlat fuqaroligiga ega yoki ega emasligini kim belgilaydi?**

Umuman olganda, fuqarolik masalasi har bir davlatning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Biroq davlatning ichki qarorlari boshqa davlatlarning harakatlari yoki xalqaro huquq bilan cheklanishi mumkin.

Masalan, 1923-yilda Tunis va Marokashdagi ichki tartiblar bo'yicha maslahat xulosasida Xalqaro doimiy odil sud quyidagilarni qayd etdi:

**” Ish faqat davlatning ichki yurisdiksiyasiga kiradimi?”, degan savol nisbiydir, bu xalqaro munosabatlarning rivojlanish darajasiga bog'liq”.**

Amalda, Xalqaro doimiy odil sud ta'kidlaganidek, fuqarolik masalalari prinsipial jihatdan davlatlarning ichki yurisdiksiyasi doirasida bo'lsa-da, davlatlar xalqaro huquq qoidalarida belgilangan boshqa davlatlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari kerak.

Ushbu yondashuv oradan yetti yil o'tgach – 1930-yildagi fuqarolik qonunlariga oid ayrim ziddiyatli masalalarni tartibga soluvchi Gaaga konvensiyasida (1930-yilgi Gaaga konvensiyasi) qayta tan olingan. Ko'pgina davlatlar Xalqaro doimiy odil sudning 1923-yildagi maslahat xulosasi haqida o'z qarashlarini bildirdilar, chunki u 1930-yilgi Gaaga konvensiyasi loyihasini ishlab chiqishga bevosita taalluqli edi. Aksariyat mamlakatlar ushbu maslahat qarorini davlat tomonidan fuqarolikka oid qarorlarni davlatdan tashqarida qo'llashni cheklash deb hisobladi, ayniqsa, agar ular boshqa davlatlarning shunga o'xshash qarorlariga zid bo'lsa.

Millatlar Ligasi Assambleyasi homiyligida ishlab chiqilgan 1930-yildagi Gaaga konvensiyasi barcha odamlar fuqarolik maqomiga ega bo'lishiga qaratilgan birinchi xalqaro tashabbus edi. Konvensiyaning 1-moddasida quyidagi norma belgilangan:

**” Har bir davlat milliy qonunchiligiga muvofiq o'z fuqarolari kimligini belgilaydi. Bu qaror xalqaro konvensiyalar, urf-odatlar va xalqaro fuqarolik huquqi tamoyillariga muvofiq keladigan darajada boshqa davlatlar tomonidan tan olinishi kerak”.**

Boshqacha qilib aytganda, davlatning fuqarolikni belgilash huquqidan foydalanishi xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi kerak.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida shunday deyilgan:

**” Har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqarolidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas”.**

Bu huquq shaxs va davlat o'rtasida tegishli aloqa mavjudligiga asoslanadi. Xalqaro sud 1955-yildagi Nottebom ishida fuqarolik va davlat o'rtasidagi aloqani quyidagicha belgilaydi:

**” Davlatlar amaliyotiga, arbitraj va sud qarorlariga, shuningdek, mualliflarning fikriga ko‘ra, fuqarolik ijtimoiy mehr-oqibat faktiga, mansublik, manfaatlar va his-tuyg‘ularning ma‘lum bir davlat bilan chinakam bog‘lanishiga, shuningdek, o‘zaro huquq va majburiyatlarga asoslangan huquqiy rishtadir”.**

Fuqarolikka bo‘lgan bu bog‘liqlik shaxsning tug‘ilishi, yashash joyi va/yoki kelib chiqishi bilan yaqqol namoyon bo‘ladi va hozirda ko‘pchilik davlatlar qonunlari normalarida, shuningdek, 1997-yildagi Fuqarolik to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi kabi yaqinda qabul qilingan xalqaro fuqarolik hujjatlarida o‘z aksini topgan.

Fuqarolik, shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha Amerikalalararo sud tomonidan belgilanadi:

**” Shaxsning ma‘lum bir davlat bilan siyosiy va huquqiy aloqasi, bu unga sodiqlikda namoyon bo‘ladi, shaxsga ushbu davlatdan diplomatik himoya olish huquqini beradi” (Kastillo-Petruzzi va boshqalar, Peru, 1999-yil maydagi qaror, Inson huquqlari bo‘yicha Amerikalalararo komissiya [Series C] N° 52, 1999).**

### **Qochqinlar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari qanday himoyalangan?**

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida har bir shaxs fuqarolik huquqiga ega ekanligi belgilangan bo‘lsa-da, unda qaysi davlatning fuqaroligi ushbu shaxsga tegishli bo‘lishi kerakligi belgilanmagan. Shaxs fuqaroligi tufayli haq-huquqlaridan mahrum bo‘lmasligini ta‘minlash uchun xalqaro hamjamiyat ikkita asosiy hujjatni ishlab chiqdi: Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi 1951-yilgi konvensiya va Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning maqomi to‘g‘risidagi 1954-yilgi konvensiya.

### **1951-yildagi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya va fuqarolikka ega emaslik masalasi o‘rtasida bog‘liqlik bormi?**

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, o‘sha davrda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo davlatlar uchun eng dolzarb masalalardan biri – bu qanday qilib urush natijasida qochqin yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylangan millionlab odamlarning ehtiyojarini qondirish edi. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining 1949-yildagi rezolyutsiyasi maxsus qo‘mita tashkil etilishiga olib keldi, uning vazifasi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiyani yaratish, shuningdek, fuqarolikka ega emaslikni yo‘q qilish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish edi.

Oxir-oqibat, qo‘mita a‘zolari Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiyaning loyihasi va Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar to‘g‘risidagi konvensiya uchun protokolni ishlab chiqdilar. Biroq qo‘mita fuqarolikka ega emaslikni yo‘q qilish masalasini to‘liq ko‘rib chiqmadi, chunki bu masala o‘sha paytda tuzilgan Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi kutilgan edi.

Tarixan olib qaraganda, qochqinlar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar BMTning Qochoqlar bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasining rahnamoligida xalqaro qochqinlar tashkilotlari tomonidan himoya va yordam olishgan. Fuqarolikka ega emaslik to‘g‘risidagi protokol rejasi qochqinlar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi ushbu aloqani aks ettirish uchun mo‘ljallangan edi. Biroq qochqinlarning shoshilinch ehtiyojlari va Xalqaro qochqinlar tashkilotining yo‘q bo‘lib ketishi 1951-yildagi vakolatli vakillarning konferensiyasida fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ahvolini batafsil tahlil qilish uchun vaqt tig‘izligini anglatardi. Shunday qilib, konferensiya Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi 1951-yilgi konvensiyani qabul qildi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga tegishli protokolni qabul qilish esa ma‘lum muddatga qoldirildi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq himoyalaniş huquqiga ega bo'lishi mumkin. Fuqaroligi bo'lmagan qochqin qochoq sifatida himoya qilinishi kerak, chunki irqiy, diniy, milliy, siyosiy yoki ozchilik sabablariga ko'ra fuqarolikdan o'z boshimchalik bilan mahrum qilish shaxsni qochoq deb tan olishni anglatadi.

## 1954-yilgi konvensiyaning qoidalarini qanday?

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga oid Protokol 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiyaga ilova sifatida ishlab chiqilgan va 1954-yilda u mustaqil konvensiya maqomini olgan. 1954-yilgi konvensiya fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomini tartibga solish va yaxshilashga, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining asosiy huquq va erkinliklaridan moneliksiz foydalanishlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy xalqaro hujjatdir (1954-yilgi konvensiyaga a'zo davlatlar ro'yxati 1-ildoda keltirilgan).

1954-yilgi konvensiya qoidalarini ko'p jihatdan 1951-yilgi konvensiya qoidalariga o'xshash. 1954-yilgi konvensiyaga qo'shilish davlat hududida tug'ilgan va istiqomat qiluvchi shaxslarga fuqarolik maqomi berilishini anglatmaydi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga berilgan huquqlar qanchalik keng bo'lmasin, ular fuqarolikni olish bilan teng emas.

1954-yilgi konvensiyaning 1(1)-moddasi fuqaroligi bo'lmagan shaxsning xalqaro miqyosda qabul qilingan ta'rifini o'z ichiga oladi:

### **“Dunyoning hech bir davlati tomonidan o'z qonunlariga muvofiq fuqaro sifatida tan olinmagan shaxs”.**

1954-yilgi konvensiyaning 1(1)-moddasiga kiruvchi shaxslar ba'zan “de-yure fuqaroligi bo'lmagan shaxslar” deb ataladi. Shu bilan birga, yakuniy qoidada “de-fakto fuqaroligi bo'lmagan shaxslar” ko'rsatilgan. “De-fakto fuqaroligi bo'lmagan shaxs” atamasi hech qanday xalqaro hujjatda ta'riflanmagan va ushbu toifadagi odamlarga tegishli maxsus shartnoma rejimi mavjud emas. BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining “de-fakto fuqaroligi bo'lmagan shaxslar”ga nisbatan amaldagi ta'rifi o'z mamlakati hududidan tashqarida bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni nazarda tutadi, ular ma'lum sabablarga ko'ra bu davlatdan diplomatik himoya ololmaydilar yoki olishni xohlamaydilar.

## Fuqaro kim? Fuqaroligi bo'lmagan shaxs kim?

Qonunga ko'ra, mamlakat fuqarosi bo'lish deganda, shaxsning davlat fuqarolik qonunchiligida belgilangan shartlarga muvofiq fuqarolik ta'rifiga tushishi yoki unga vakolatli organlar qarori bilan fuqarolik berilganligi tushuniladi. Aksariyat odamlar, qonunchilikka ko'ra, o'zlarini tug'ilgan (“jussoli”) yoki ota-onasi tug'ilish vaqtida fuqarosi bo'lgan (“jussanguinis”) davlatning fuqarolari hisoblanadilar.

Ma'muriy tartib-qoidalar fuqarolikni berishga ruxsat etgan taqdirda, fuqarolikka da'vogarlar tomonidan to'ldirilgan ariza topshirilmaguncha va tasdiqlanmaguncha, ular to'liq fuqaro deb hisoblanishi mumkin emas, shundan so'ng qonunga muvofiq ma'lum bir davlat fuqaroligi beriladi. Qonuniy ravishda fuqarolikni olish uchun ariza berish huquqiga ega bo'lgan, ammo arizalari rad etilgan shaxslar davlat fuqarosi hisoblanmaydi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish bo'yicha BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining qo'llanmasi davlatlar, BMT QOKB va boshqa manfaatdor tomonlarga 1954-yilgi konvensiyaning 1(1)-moddasini talqin qilish bo'yicha ma'lumot beradi, bu esa ular uchun shaxslarni aniqlash va ularga to'g'ri munosabatda bo'lishga yordam beradi.

1954-yilgi konvensiyada fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning xalqaro huquqiy ta'rifi hamda ularga munosabat standartlari kiritilgan bo'lsa-da, unda ularni aniqlash mexanizmi belgilanmagan. Biroq konvensiyada davlatlar o'z hududlarida fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni unga muvofiq bo'lishi kerak bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlash uchun ularni aniqlashlari kerakligi aniq ko'rsatilgan. BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish bo'yicha qo'llanmasi davlatlar va BMTning mazkur boshqarmasiga shaxsning fuqaroligi yo'qligini aniqlash uchun milliy tartiblarni belgilashda yordam beradi. Bosh boshqarmadagi bo'linmalar, idoralar yoki xizmatlar orqali Qochoqlar bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi, agar kerak bo'lsa, ushbu tartiblarni qanday o'rnatish va qo'llash bo'yicha maslahatlar beradi.

## **Fuqaroligi bo'lmagan shaxs ham qochqin bo'lishi mumkinmi?**

Garchi butun dunyo bo'ylab fuqaroligi bo'lmagan odamlar, odatda, o'zlari tug'ilgan mamlakatda istiqomat qilsalar ham, ularning katta qismi irqi, dini, millati, siyosiy qarashlari yoki mansubligiga asoslangan ta'qiblardan qochish uchun o'z mamlakatlarini tark etishga majbur bo'lgan. Bunday shaxslar fuqaroligi bo'lmagan qochqinlardir.

Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi konvensiyada keltirilgan "qochoq" atamasiga berilgan ta'rifga ko'ra, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'qib qurboni bo'lmaydilar, ammo ta'qib elementi ko'plab omillardan biri bo'lishi mumkin. Kamsitish tufayli o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum qilish, ayniqsa, buning natijasida shaxs fuqaroliksiz qolsa, ta'qib qilish qo'rquvining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya va 1954-yildagi Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaning mualliflari qochoqlar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qiladigan ikkita alohida huquqiy rejim yaratishga qaror qilishdi. 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya qochqinlar, shu jumladan fuqaroligi bo'lmagan qochqinlar bilan bog'liq bo'lsa, 1954-yilgi konvensiya faqatgina fuqaroligi bo'lmagan qochqinlar bilan bog'liq.

1954-yilgi konvensiya bo'yicha fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga berilgan huquqlarning aksariyati Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi konvensiyada qayd etilgan qochqinlarning huquqlari bilan bir xildir. Biroq alohida vaziyatdan kelib chiqqan holda, 1951-yilgi konvensiyada hududda noqonuniy bo'lishni jinoyat deb hisoblamaslik va qaytarib yubormaslik tamoyili bo'yicha aniq qoidalar mavjud. Bu tamoyillar 1954-yilgi konvensiyada mavjud emas. Xuddi shunday, agar shaxs bir vaqtning o'zida qochqin va fuqaroligi bo'lmagan shaxs sifatida belgilangan bo'lsa, davlat unga Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi konvensiyaning yanada qulay qoidalarini qo'llashi kerak.

## 1961-yilda qabul qilingan Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaning qoidalari qanday?

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish bo'yicha davlatlarning turlicha yondashuvlari tufayli ba'zi shaxslar "e'tibordan chetda qolib", fuqarolikdan ayrilishda davom etmoqda. Bunday vaziyatlarni hal qilish uchun umumiy qoidalarga ega bo'lish kerak.

Bu borada 1950-yilda Xalqaro huquq komissiyasi hujjat yaratish jarayonini boshladi, keyinchalik u Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi 1961-yilgi konvensiyaga aylandi. 1961-yilgi konvensiya fuqarolikka ega emaslik tahdidiga adolatli va to'g'ri javob berish bo'yicha aniq, batafsil va amaliy choralarni ko'rsatuvchi yagona hujjatdir.

1961-yilgi konvensiya moddalari tug'ilish vaqtida va keyingi hayotda fuqarolik yo'qligining oldini olishga qaratilgan, biroq ular ma'lum shartlar ostida fuqarolikdan mahrum qilishni taqiqlamaydi, shuningdek, davlatlardan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga fuqarolik berishni talab qilmaydi. 1961-yilgi konvensiya, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar shikoyatlar bilan murojaat qilishlari va tegishli tashkilotga ariza berishda yordam olishlari mumkin bo'lgan organni tashkil etishni ham nazarda tutadi. Bosh Assambleya BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan bir necha bor ushbu vazifani bajarishni so'ragan (1961-yilgi konvensiyaga a'zo davlatlar ro'yxati uchun 2-ilovaga qarang).

1961-yilgi konvensiya fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish maqsadida ishtirokchi-davlatlardan fuqarolikni qabul qilish va yo'qotish bo'yicha belgilangan standartlarni aks ettiruvchi ichki qonunchilikni qabul qilishni talab qiladi. Davlatlar o'rtasida konvensiyani talqin qilish yoki qo'llash bo'yicha boshqa yo'l bilan hal qilish bo'lmaydigan kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, kelishmovchilik tomonlardan birining Xalqaro sudga ariza berishi orqali hal qilinishi kerak.

BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish bo'yicha qo'llanmasi davlatlar, mazkur boshqarma va boshqa manfaatdor tomonlarga bolalar o'rtasida fuqarolik yo'qligining oldini olishga doir 1961-yilgi konvensiyaning 1 – 4 va 12-moddalarini talqin qilish va qo'llash bo'yicha yo'l-yo'riq beradi.

**” Bir marta davlatlarning chegaralari o'rtasida bo'lib qolganimda, ularning hech biriga kira olmadim. Bu “unutilmas” tajriba edi! Oldingi bo'lgan yurtimga ham, tug'ilib-o'sgan va yashagan yurtimga ham qaytib kela olmadim. Mening uyim qayerda edi? Aeroportda boshdan kechirgan o'sha kuchli his-tuyg'uni haligacha unuta olmayapman”.**

---

Lara, sobiq fuqaroligi yo'q shaxs

## Inson huquqlari bo'yicha qonunlar fuqarolik huquqini qanday ta'minlaydi?

Fuqarolik huquqi boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda ham ko'rib chiqiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida har kim fuqarolik huquqiga egaligi va hech kim shaxsni o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum etishga haqli emasligi qayd etilgan.

Har bir bolaning fuqarolikka ega bo'lish huquqi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida ham belgilab qo'yilgan. Paktning 24-moddasida shunday deyilgan:

**” Har bir bola irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli yoki nasl-nasabidan qat'i nazar go'dakligi sababli hech bir kamsitishsiz oila, jamiyat va davlat tomonidan himoyalaniş huquqiga ega”.**

**” Har bir bola tug'ilgandan so'ng darhol ro'yxatdan o'tkazilishi va ismiga ega bo'lishi kerak”.**

**” Har bir bola fuqarolikni olish huquqiga ega”.**

Mazkur paktning 26-moddasida kamsitmaslik to'g'risidagi band ham mavjud bo'lib, u keng miqyosda, shu jumladan, milliy fuqarolik qonunchiligida ham qo'llaniladi:

**” Barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech bir kamsitishsiz qonun orqali teng himoya qilinish huquqiga egadirlar. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo'yilishi va qonun barcha shaxslarga hech bir kamsitishsiz, jumladan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi (nasl-nasabi)dan va boshqa holatidan qat'i nazar kamsitishga qarshi teng va samarali muhofazani kafolatlashi kerak”.**

Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi 1965-yildagi konvensiya davlatlar zimmasiga “irqi, tana rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, har kimga, asosiy inson huquqlarini amalga oshirishga mos keladigan qonun oldida tenglik huquqi va fuqarolik huquqini (5-modda) kafolatlash” majburiyatini yuklaydi.

1979-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning 9-moddasida fuqarolikka ega emaslikning asosiy sababi – ko'plab ichki qonunlarda ayollarga nisbatan kamsitish mavjudligi masalasi ko'rib chiqiladi:

**” Ishtirokchi davlatlar ayollar va erkaklarga o'z fuqaroligini olish, o'zgartirish yoki saqlab qolish borasida teng huquqlarni berishlari kerak. Xorijiy fuqaro bilan turmush qurish ham, turmush o'rtog'ining fuqaroligini o'zgartirish ham er yoki xotinning fuqaroligini avtomatik ravishda o'zgartirmasligi, ularni fuqaroligi bo'lmagan holda qoldirmasligi va ayol erining fuqaroligini olishga majburlanmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim”.**

**” Ishtirokchi davlatlar, shuningdek, ayollar va erkaklarga o'z farzandlarining fuqaroligini olishda teng huquqlarni berishlari kerak”.**

Dunyoning deyarli barcha davlatlari tomonidan imzolangan 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya fuqarolik bilan bog'liq uchta muhim moddani o'z ichiga oladi:

2-moddada shunday deyilgan:

**” Ishtirokchi-davlatlar ushbu konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'i nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar”.**

7-moddada:

**” Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi”.**

8-moddaning 1-bandida shunday deyiladi:

**” Ishtirokchi-davlatlar bolaning o'z shaxsini, shu jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy rishtalarini qonunda nazarda tutilgan holda, noqonuniy aralashuvlarsiz saqlab qolish huquqini hurmat qilish majburiyatini oladilar”.**

1990-yildagi Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 29-moddasida qayd etilganidek:

**” Mehnat migrantining har bir farzandi ism, tug'ilganlik guvohnomasi va fuqarolik olish huquqiga ega”.**

2006-yilgi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 18-moddasida shunday deyilgan:

**” 1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning harakatlanish, yashash joyini tanlash erkinligi va fuqarolik huquqlarini boshqalar bilan teng asosda tan oladilar, shu jumladan nogironlar:**

**a) fuqarolikka ega bo'lish va uni o'zgartirish huquqiga ega, ular o'zboshimchalik bilan yoki nogironligi sababli o'z fuqaroligidan mahrum qilinmaydi;**

**2. Nogiron bolalar tug'ilgandan so'ng darhol va tug'ilgan kundan boshlab ro'yxatga olinadilar, ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqiga hamda imkon qadar ota-onasini bilish hamda ularning g'amxo'rligida bo'lish huquqiga egadirlar”.**

## Fuqarolik huquqi bilan bog'liq mintaqaviy hujjatlar mavjudmi?

Hududiy hujjatlar fuqarolik huquqiga oid hujjatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. 1969-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasining 20-moddasi nafaqat fuqarolik huquqiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi, balki tug'ilgan bolalar fuqarolikdan mahrum bo'lishidan ularni himoya qilishning asosiy kafolatlarni ham qamrab oladi:

**” Har bir inson fuqarolik huquqiga ega. Har bir shaxs, agar u boshqa davlat fuqaroligini olish huquqiga ega bo'lmasa, o'zi hududida tug'ilgan davlatning fuqaroligini olish huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan yoki uni o'zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas”.**

Bu tamoyillar keyinchalik Amerikalarda sud yurisprudensiyasi tomonidan tan olingan. Sud fuqarolikni berish shartlari ichki vakolat doirasida qolayotganini tasdiqladi. Milliy qonunchilikda sud quyidagilarni ta'kidladi:

**” Odatda, fuqarolikni tan olish va berish masalalari har bir davlat tomonidan mustaqil belgilanishiga qaramay, zamonaviy o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro huquq davlatlar tomonidan ushbu sohadagi keng vakolatlarga ma'lum cheklovlar qo'yadi. Shuningdek, bugungi kunda davlatning fuqarolik masalalarini tartibga solish usuli faqat ularning vakolatiga kirmasligi kerak (Inson huquqlari bo'yicha Amerikalarda sud, maslahat xulosasi, “Kosta-Rika Konstitutsiyasidagi naturalizatsiya qoidalariga o'zgartirishlar”, 32-34-bandlar; matn 5 HRLJ 1984).**

Boshqacha qilib aytganda, milliy fuqarolik to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilishda davlatlar, ayniqsa, bunday qonun hujjatlarini qo'llash fuqarolikdan mahrum etilishga olib kelishi mumkin bo'lsa, xalqaro reaksiyalarni hisobga olishlari kerak.

Yevropa Kengashi tomonidan yaratilgan mintaqaviy hujjat bo'lgan Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi fuqarolik bilan bog'liq ichki va xalqaro qonunchilikdagi barcha o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yagona hujjat yaratish zarurati tufayli paydo bo'ldi, chunki 1930-yildagi Gaaga konvensiyasida ichki qonunchilikka tegishli tafavutlar ko'rib chiqildi. Yevropada qabul qilingan boshqa hujjatlardan farqli o'laroq, konvensiya nikohga kirgan turli fuqarolikka ega bo'lgan shaxslarga, shuningdek, ularning farzandlariga bir necha davlat fuqaroligini olishga ham ruxsat beradi. Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, shuningdek, fuqarolikni olish, saqlab qolish, yo'qotish va qayta olish, protsessual huquqlar, davlat vorisligi negizida fuqarolik, harbiy majburiyatlar va ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi hamkorlik bilan bog'liq. Hujjatda fuqarolikdan mahrum etilish yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan ko'plab qoidalar mavjud. Yevropa konvensiyasi “fuqaroligi bo'lmagan shaxs” atamasining ta'rifi bo'yicha 1954-yilgi konvensiyaga murojaat qiladi.

Davlat vorisligi bo'yicha Yevropaning so'nggi tajribasi ko'p sonli odamlar bir davlat fuqaroligini yo'qotgandan keyin va boshqa davlat fuqaroligini olishdan oldin fuqaroligi bo'lmagan holda qolishi xavfini tan olishga olib keldi. Hududning bir davlatdan ikkinchisiga o'tishi, davlatlar birlashishi, davlatning bir qismi yoki qismlarining parchalanishi yoki bo'linishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fuqarolikka ega emaslikning oldini olish maqsadida Yevropa Kengashi Davlatlarning vorisligi sababli fuqarolikdan mahrum bo'lishning oldini olish to'g'risidagi konvensiyani qabul qildi. 2006-yil 15-martda qabul qilingan ushbu konvensiya davlatlarning merosxo'ri bo'lgan taqdirda fuqarolikka tegishli maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi. U 22 moddadan iborat bo'lib, o'tkazuvchi va qabul qiluvchi davlatlarning majburiyatlari, dalillarni ko'rsatish qoidalarini, shaxs tug'ilganda fuqarolikka ega bo'lmasligining oldini olish, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik olishiga ko'maklashish kabi masalalar bo'yicha amaliy maslahatlar beradi.

**” Ba’zida men o’zimdanda nafratlanaman. Men o’zimni odamdek his qilmayman va bu fikr bilan yashash juda ham qiyin. Do’stlarim oddiy hayot kechirishadi va men buni qila olmayman. Mening orzum bor – mashina sotib olish, lekin uni amalga oshira olmayman. Agar buni amalga oshirish uchun pulim bo’lganida ham hech qachon mening nomimga rasmiylashtirilmagan bo’lardi. Men turmushga chiqmoqchiman, lekin fuqaroligim yo’qligi uchun bir inson menga uylanishdan bosh tortdi. Men o’zimni qamoqxonadagidek his qilyapman. Livan fuqaroligi men uchun oltindan qimmatroq, lekin men katta narxni to’lasam ham, uni ololmayman. Fuqaroligi, hujjatlari bor livanlik qizlarni, ayniqsa, bu imtiyozdan foydalanmayotganlarni ko’rish men uchun qiyin - o’qishmaydi, ishlashmaydi, agar iloji bo’lsa, men erishmoqchi bo’lgan narsaga erishmaydi”.**

---

Zaynab, Livanda yashovchi fuqaroligi yo’q ayol

1999-yilda Afrika birligi tashkiloti (hozirgi Afrika Ittifoqi) Bola huquqlari va farovonligi to’g’risidagi Afrika Xartiyasini qabul qildi. Ushbu hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari bo’yicha qo’mitasi tavsiyalariga asoslangan hamda avvalgi hujjatlardagi kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik va bolaning eng yaxshi manfaatlarini himoya qilish kabi bir qancha asosiy tamoyillarni o’z ichiga oladi. Afrika Xartiyasining 6-moddasi ism va fuqarolikka oid bo’lib, unda bolalar o’rtasida fuqarolikka ega emaslikning oldini olishning asosiy kafolatlari ham mavjud:

- har bir bola tug’ilgandan boshlab ism olish huquqiga ega bo’lishi kerak;
- har bir bola tug’ilgandan keyin darhol ro’yxatga olinishi kerak;
- har bir bola fuqarolik huquqiga ega bo’lishi kerak; va
- Xartiyaning ishtirokchi-davlatlari, agar bola tug’ilgan paytda ushbu davlatlardan birining fuqaroligini yoki boshqa davlat qonunchiligiga muvofiq fuqarolikni olmagan bo’lsa, o’z konstitutsiyaviy qonunchiligiga ko’ra, bola o’zi tug’ilgan davlatning fuqaroligini olishi kerakligiga doir tamoyillarni tan olishini ta’minlash uchun choralar ko’rishi kerak.

Islomda bola huquqlari to’g’risidagi bitim 2005-yilning iyun oyida bo’lib o’tgan 32-Isлом tashqi ishlar vazirlari konferensiyasida qabul qilingan. Unda shunday deyilgan:

- har bir bola tug’ilgandan boshlab ism olish huquqiga ega bo’lishi kerak;
- har bir bola ro’yxatga olinish huquqiga ega bo’lishi kerak;
- Bitimning ishtirokchi-davlatlari o’z hududida tug’ilgan har bir bolaning yoki undan tashqarida bo’lgan fuqarolarning fuqaroligi yo’qligi muammosini hal qilish uchun harakat qilishlari kerak; va
- yetim bolalar ism, hujjat va fuqarolikka ega bo’lishlari kerak.

# Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ta'rifi va himoyasi



☞ Sabah shtatida tug'ilgan minglab fuqaroligi bo'lmagan migrant bolalar tug'ilish paytida Malayziya fuqaroligini yoki shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olmagan. Malayziya maktablariga borish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ular ko'pincha Kota Kinabalu'dagi kabi bozorlarda ishbay haq evaziga mehnat qiladilar. © BMT QOKB / Greg Konstantin, 2010

Fuqarolik to'g'risidagi ichki qonunlar hamda 1961-yilgi konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlarni qo'llash orqali fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirishga urinishlarga qaramay, BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining hisob-kitoblariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar hali ham fuqarolikka ega emas. 1954-yilgi konvensiya fuqaroligi bo'lmagan shaxslar toifasini aniqlab beradi, ularga huquqiy identifikatsiyani olishga ko'maklashadi va ularga hech qanday kamsitishsiz huquq va erkinliklarni taqdim etadi.

## Fuqaroligi bo'lmagan shaxs kim?

1954-yilgi konvensiya fuqaroligi bo'lmagan shaxsga "davlat qonunlariga ko'ra biron bir davlatning fuqarosi deb tan olinmagan" deb ta'rif beradi (1-modd). Bu mutlaqo qonuniy ta'rif. Bu fuqarolar ega bo'lgan huquqlarga, fuqarolik qanday berilishi yoki unga kirish huquqiga ishora qilmaydi. Shaxsning qonun bo'yicha fuqaro ekanligini aniqlash har bir alohida holatda, shuningdek, shaxsning maqomiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan apellatsiya va sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish holatlarida davlat tomonidan fuqarolik to'g'risidagi qonunlarning amalda qo'llanilishini sinchiklab tahlil qilishni talab qiladi.

Shaxsning fuqaroligi yo'qligini isbotlash uchun davlatlar ushbu shaxs bilan alohida aloqada bo'lgan mamlakatlarning tegishli fuqarolik qonunlarini ko'rib chiqishlari kerak (masalan, tug'ilgan mamlakati, oldingi yashash joyi, ota-onasi, turmush o'rtog'i, bolalari, bobosi va buvisi qaysi davlat fuqarosi ekani).

Shuningdek, ushbu qonunchilik amalda qanday qo'llanilishi, shuningdek, davlat ushbu shaxslar yoki shaxslar guruhiga qanday munosabatda bo'lganligi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'rganish kerak. Agar kerak bo'lsa, rasmiylar bu davlatlar bilan maslahatlashib, dalil so'rashlari lozim. Shaxslar o'z holati to'g'risida imkon qadar to'liq va aniq ma'lumot berishlari va barcha mavjud dalillarni taqdim etishlari shart. BMT QOKB so'rov bo'yicha davlatlarga maslahat yordami, shuningdek, tegishli qonunlar va ularning turli davlatlarda qo'llanilishi bo'yicha texnik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shaxsning fuqaro emasligini tasdiqlovchi davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, odatda, fuqarolik yo'qligining yetarli dalilidir. Biroq bunday dalil har doim ham mavjud emas. Shaxs tug'ilgan yoki u ilgari istiqomat qilgan hududning vakolatli organlari shaxsning fuqarolikka ega emasligini ko'rsatadigan rasmiy hujjatlarni taqdim etishni rad etishi yoki so'rovlarga javob bermasligi mumkin. Ba'zi davlat organlari ayrim shaxslarning davlat bilan rasmiy fuqarolik aloqasi yo'qligi uchun o'zini javobgar deb hisoblamaydi. So'rovga javob yo'qligi haqidagi xulosalar faqat ma'lum vaqt o'tgandan keyin amalga oshirilishi mumkin. Agar davlat bunday so'rovlarga nisbatan har qanday javob qaytarishga qarshi umumiy siyosatga ega bo'lsa, so'rovga javob qaytarilmasligini umuman javob bermaslik deb tushunmaslik kerak. Boshqa tomondan, agar davlat bunday so'rovlarga muntazam ravishda javob bersa, hech qanday javobning yo'qligi bu shaxsning fuqaro emasligini ko'rsatishi mumkin.

**” Biz oddiy ish topa olmaymiz, harakatlana olmaymiz, biz o'z bandargohi bo'lmagan kemalarga o'xshaymiz. Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish ham muammo hisoblanadi. Men o'rta maktabni tugata olmadim, kollejga ham kira olmadim. Agar shifokor kerak bo'lsa, davlatga emas, xususiy klinikaga murojaat qilishim kerak”.**

Abdulloh, Birlashgan Arab Amirliklarida yashovchi arab millatiga mansub fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs

## Shaxsni 1954-yilgi konvensiya qoidalaridan chetlashtirish mumkinmi?

1954-yilgi konvensiyaning muqaddimasida aytilishicha, fuqaroligi bo'lmagan qochqinlar Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi konvensiya bilan qamrab olingan va shu sababli 1954-yilgi konvensiyadan chiqarib tashlangan.

1954-yilgi konvensiyaning 1-moddasida fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'rifiga qo'shimcha ravishda, fuqaroligi bo'lmaganlar ta'rifiga to'g'ri kelishiga qaramay (ya'ni, fuqaroligi bo'lmaganligiga qaramay) ma'lum sabablarga ko'ra 1954-yilgi konvensiya qo'llanilishi doirasiga kirmaydigan shaxslar ham belgilangan. Buning sababi yoki ular xalqaro himoyaga muhtoj emasligi, yoki o'z harakatlari tufayli bunga loyiq emasligidir. Bu shaxslarga quyidagilar kiradi:

- **“Hozirda BMT organlari yoki BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan tashqari boshqa idoralar tomonidan himoya yoki yordam olayotgan shaxslar, agar yordam davom etsa”.**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharqdagi falastinlik qochqinlarga yordam berish va ishlarni tashkil etish agentligi hozirgi kunga qadar ushbu bandga amal qilgan yagona BMT agentligidir.

- **“Yashash joyidagi davlatning vakolatli organlari tomonidan fuqarolikka qabul qilish bilan bog'liq huquq va majburiyatlar berilgan shaxslar”.**

Bu shuni anglatadiki, fuqaroligi bo'lmagan shaxsning davlatda yashash uchun rasmiy ruxsati va 1954-yilgi konvensiyada ko'rsatilganidan ortiq huquqlar, xususan, mamlakat fuqarolariga berilgan to'liq iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar mavjud bo'lsa; va agar shaxs deportatsiya va qayta yuborishdan himoyalangan bo'lsa, fuqaroligi yo'qligiga qaramay, u konvensiya qoidalariga bo'ysunishi shart emas.

- **“Xalqaro hujjatlarda belgilangan tinchlik yoki insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlarini sodir etgan shaxslar; o‘z mamlakatiga kirgunga qadar o‘z yashash joyidan tashqarida og‘ir siyosiy bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar, shuningdek, BMT maqsadlari va tamoyillariga zid xatti-harakatlarda aybdor shaxslar”.**

## **Shaxsni fuqaroligi bo‘lmagan shaxs deb hisoblash qachon to‘xtatiladi?**

Fuqarolikka ega emaslik holati shaxs fuqarolikni qabul qilgandan so‘ng tugaydi.

1994-yilda Braziliya Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, Braziliya fuqaroligiga ega bo‘lgan ota-onalarning Braziliyadan tashqarida tug‘ilgan bolalari, agar ular Braziliya hududida yashash uchun qaytib kelmasa, fuqarolikni ololmaydilar. Buning natijasida, jamoat tashkilotlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, o‘n yil ichida 200 ming bola fuqaroliksiz qolgan.

2007-yilda Braziliya 1961-yilgi konvensiyaga qo‘shilgandan so‘ng, Milliy Kongress Konstitutsiyaga o‘zgartirishni ma‘qulladi, natijada fuqarolik uchun dastlabki shart bo‘lgan rezidentlik talabi konsullik ro‘yxatidan o‘tkazish bilan almashtirildi. Ushbu islohot retroaktiv edi va ko‘plab fuqaroligi bo‘lmagan bolalarga Braziliya fuqaroligini olishga yordam berdi.

## **Fuqarolikka ega emaslik maqomini aniqlash qachon zaruriy javob hisoblanadi?**

Fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartibi, odatda, mamlakatlarga 1954-yilgi konvensiya bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda yordam beradi. Konvensiya "fuqaroligi bo‘lmagan shaxs" atamasini belgilagan bo‘lsa-da, u kimligini aniqlash uchun maxsus tartiblarni nazarda tutmaydi. Shu bilan birga, 1954-yilgi konvensiyada davlatlar konvensiya bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq zarur yordam ko‘rsatish uchun o‘z yurisdiksiyalari doirasidagi barcha fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni aniqlashlari kerakligi ta‘kidlanadi.

Fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartib-qoidalaridan foydalanish faqat migratsiya sharoitida bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun mo‘ljallangan. O‘z "vatanida" yoki uzoq yillardan beri yashab kelayotgan hududda bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun fuqarolikka ega emaslikni aniqlash usullari qo‘llanilmaydi, chunki ular davlat bilan mustahkam aloqaga ega. Tegishli shaxslarning sharoitlariga qarab, davlatlar ushbu shaxslarning fuqaroligi yo‘qligini aniqlash usullarini qo‘llash o‘rniga, maqsadli fuqarolik kampaniyalarini yoki fuqarolikni tekshirish bo‘yicha harakatlarni o‘tkazishga da‘vat etiladi.

## **Fuqarolikka ega emaslik maqomini aniqlashning qanday tartiblari mavjud?**

Faqat kam sonli davlatlarda fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning maqomini aniqlashning maxsus tartiblari mavjud. Biroq boshqa davlatlarda ham bunday tartiblarni o‘rnatishga qiziqish ortib bormoqda. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning maqomini aniqlash tartib-qoidalari bilan qaysi organlar shug‘ullanishi har bir davlatning vakolatiga kiradi va o‘zgarishi mumkin. Fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartib-qoidalari huquqiy yoki ma‘muriy tizimlarda mavjud bo‘ladimi, ekspertlar o‘zlarining fuqaroligi yo‘qligini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari va ular tegishli aholi uchun ham mavjud bo‘lishi kerakligini yodda tutishlari muhim. Bu maxsus ma‘muriy yoki huquqiy bo‘linmalarda, shu jumladan o‘qitilgan va tajribali xodimlarda fuqaroligi yo‘qligini aniqlash bo‘yicha ko‘nikmalarining jamlanishi bilan jismoniy shaxslarning mamlakatning istalgan nuqtasida joylashgan davlat vakillariga murojaat qilish qobiliyati o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Ba‘zi davlatlar hukumat tarkibidagi maxsus tuzilmalarni – faqatgina boshpana, qochqinlar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalarni yoki, masalan, fuqarolikka ega emaslik masalasini ko‘rib chiqadigan va qaror qabul qiladigan Ichki ishlar vazirligini belgilaydigan qonun hujjatlarini qabul qildi.

Ko'pincha, fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini aniqlash usullarini belgilaydigan qonun hujjatlariga ega bo'lmagan davlatlar ma'muriy yoki yuridik organni tuzadilar, uning vazifasi jismoniy shaxslarning fuqarolikka ega emasligini aniqlashdir.

Biroq ko'pgina davlatlarda maxsus o'rnatilgan amaliyotlar mavjud emas. Ushbu davlatlarning aksariyatida fuqarolikka ega emaslik masalasi ko'pincha qochoq maqomini aniqlash jarayonida yuzaga keladi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishi qochqinlarning gumanitar yoki yordamchi himoyasini o'z ichiga olgan ushbu tizim orqali ko'rib chiqilishi mumkin. Aslida, qochqinlar boshpana so'rash tizimi orqali o'z da'volarini topshirishlari talab qilinishi mumkin, chunki ular uchun boshqa tizim mavjud emas. Fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartibining shakli va joylashuvidan qat'i nazar, boshpana izlovchilar tomonidan taqdim etilgan arizalar uchun maxfiylik talablariga rioya qilish kerak.

Ba'zi mamlakatlarda fuqarolikka ega emaslik maqomini tan olishning o'ziga xos usullari mavjud emas, biroq shaxs yashash uchun ruxsat olish, sayohat hujjatini berish yoki boshpana so'rovi rad etilgan bo'lsa, ushbu mamlakatda yashash uchun boshpana so'rab ariza bilan murojaat qilganda muammo paydo bo'lishi mumkin.

Fransiyada fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomini aniqlash tartibi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni huquqiy va ma'muriy himoya bilan ta'minlash vakolatiga ega bo'lgan Fransiyaning Qochqinlar va fuqaroligi bo'lmaganlarni himoya qilish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Nomzodlar to'g'ridan-to'g'ri ushbu bo'lim orqali ariza topshirishlari kerak.

Filippinda fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartibi Filippin Adliya departamenti tomonidan boshqariladigan Qochqinlar va fuqaroligi bo'lmaganlarni himoya qilish markazlashtirilgan bo'limi tomonidan boshqariladi. Fuqarolikka ega emaslik maqomini aniqlash uchun arizalar to'g'ridan-to'g'ri mazkur tuzilma yoki Migratsiya boshqarmasining istalgan hududiy bo'limi orqali topshirilishi mumkin.

Moldova Respublikasida fuqaroligi bo'lmagan shaxs maqomini aniqlash tartibi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va boshpana masalalari bo'yicha boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Murojaatlar og'zaki yoki yozma shaklda manfaatdor shaxs yoki xodim tomonidan Migratsiya va boshpana masalalari bo'yicha idoraning ixtisoslashtirilgan ma'muriy bo'linmasidagi maxsus xodimga topshirilishi mumkin.

Ispaniyada "Chet elliklar to'g'risida"gi qonun qirolik farmoni bilan tartibga solinadigan qoida orqali Ichki ishlar vazirligi tomonidan fuqarolikka ega emaslik maqomni tan olishni nazarda tutadi. Ariza beruvchilar politsiya bo'limlariga yoki Boshpana va qochqinlar idorasiga murojaat qilishlari mumkin. Tergov bosqichi tugagandan so'ng, bo'lim jarayonni amalga oshiradi va keyin uning asosi bahosini Ichki ishlar vazirligiga yuboradi.

Meksikada fuqarolikka ega emaslikni aniqlashning rasmiy tartibi mavjud bo'lmasa-da, 2010-yilgi Migratsiya mezonlari va usullari bo'yicha qo'llanmada fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Meksika qo'shimcha himoya tizimi orqali xalqaro himoya olishlari mumkinligi aytilgan. Qo'llanmada kim fuqaroligi yo'q deb hisoblanishi haqidagi ta'rif mavjud bo'lsa-da, u alohida ishlarni ko'rib chiqish tartibini belgilamaydi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishga oid qo'llanmasi hukumatlar, BMT QOKB va boshqa manfaatdor tomonlarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomini aniqlash shartlari, shu jumladan ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan dalillar bilan bog'liq masalalar bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

## **Qanday dalillar kerak?**

Fuqarolikka ega emaslikning tabiatini hisobga olgan holda, shaxslar ko'pincha fuqaroligi yo'qligi to'g'risida yetarli, hujjatlashtirilgan dalillarni taqdim eta olmaydi. Ularning ko'pchiligi bu zaruratdan xabardor emas yoki ular bilan yaqin aloqada bo'lgan davlatning fuqarolik qonunchiligini, masalan, tug'ilgan, kelib chiqishi, turmush qurgan yoki doimiy yashash joyi kabi zarur tahlillarni o'tkazish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, muayyan shaxsning ishi bo'yicha ma'lumot, jumladan, qonun va uning qo'llanilishi bo'yicha tushuntirishlar berish uchun xorijiy davlat organlariga murojaat qilish shaxsning fuqaroligi yo'qligini aniqlashda hal qiluvchi qadam bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda davlatlar bunday so'rovlarga javoblarni faqat boshqa davlat tashabbusi ko'rsatilgandan keyin beradi.

Shunday qilib, fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini aniqlash tartibi barcha mumkin bo'lgan murakkabliklarni hisobga olishi kerak. Fuqarolik yo'qligini aniqlash tartibi ariza beruvchidan ham, ekspertdan ham dalillarni olish va dalillarni aniqlash uchun birgalikda ishlashni talab qiladi, bu isbotlash yuki deb ataladi. Fuqarolik yo'qligini isbotlashdagi qiyinchiliklar tufayli uni isbotlash talablari chegarasi juda yuqori bo'lmisligi kerak. Davlatlar, shuningdek, fuqarolikka ega emaslik maqomini belgilashda talab qilinadigan isbotlashning umumiy standartlarini qabul qilishga da'vat etiladi. Bu shuni anglatadiki, fuqarolikka ega emaslik maqomini aniqlash, uning qonunlariga ko'ra, shaxs hech qanday davlat fuqarosi emasligi "oqilona darajaga" erishilganda kafolatlanadi. BM Tning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishga oid qo'llanmasi shaxsning fuqarolikka ega emasligini aniqlashda isbotlash yuki va uning standartlari qanday qo'llanilishi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

## **Jismoniy shaxs fuqarolikka ega emasligini tan olish to'g'risida kim qaror qabul qiladi?**

Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini aniqlashga mo'ljallangan taqdim etilgan arizani, shuningdek, ilova qilingan dalillarni xolisona baholay oladigan fuqarolikka ega emaslik sohasida ixtisoslashgan malakali xodimlar bo'lishi kerak. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomini aniqlash uchun mas'ul bo'lgan markaziy organ noto'g'ri qarorlar qabul qilish xavfini kamaytirish, shuningdek, kelib chiqish mamlakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada samarali to'plash va tarqatish, shu bilan birga, yo'naltirilgan ish orqali fuqarolik yo'qligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini aniqlash boshqa davlatlarning qonunlari, normalari va amaliyotini to'plash va tahlil qilishni talab etadi. Markaziy organ bo'lmasa ham, qaror qabul qiluvchilar davlat ichida va tashqarisida fuqarolik huquqi masalalarida vakolatli hamkasblar bilan hamkorlik qilishdan foyda ko'radi.

## **Jismoniy shaxslar fuqarolikka ega emaslikni aniqlash tartib-qoidalaridan qanday foydalanishlari mumkin?**

1954-yilgi konvensiya davlatlarni fuqarolikka ega emaslik to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilayotgan vaqtda jismoniy shaxslarga o'z hududida qonuniy yashash huquqini berishga majbur qilmaydi. Amalda, bir kishi hududga kirgandan keyin uning fuqarolik holatini davlat tomonidan belgilash uning ahvoriga yechim topishning yagona yo'lidir.

Jismoniy shaxs fuqaroligi yo'qligini aniqlash uchun ariza bergan vaqtda yoki davlat organlari tomonidan fuqaroligi yo'qligini aniqlash tartib-taomili o'tkazilayotgan vaqtda, davlatlar ushbu shaxsni jarayon tugaganiga qadar o'z hududida ushlab turishlari tavsiya etiladi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini belgilash tartib-taomillari qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi, xolis va oshkora bo'lishi kerak. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishga oid qo'llanmasida bunday shaxslarning hurmat qilinishi kerak bo'lgan huquqlarining to'liq ro'yxati keltirilgan, masalan:

- intervyu olish imkoniyati;
- tarjima xizmatlari;
- yuridik yordam olish imkoniyati;
- ariza berilgan paytdan boshlab fuqaroligi bo'lmagan shaxsning maqomini aniqlash tartibi amalga oshirilishi lozim bo'lgan muddat ko'rsatilishi;
- qarorning yozma asosini olish huquqi;
- ariza birinchi instansiya organi tomonidan rad etilgan taqdirda qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga egalik.

## **Davlat qonuniy istiqomat qilish huquqiga ega bo'lmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ushlab turishi mumkinmi?**

Garchi 1954-yilgi konvensiya davlatlarning fuqarolikka ega emaslik maqomini belgilash to'g'risidagi arizalari ko'rib chiqilayotgan shaxslarga istiqomat qilish huquqini berishni talab qilmasa ham, bunday huquqni berish shartnomaning maqsadiga mos keladi. Mamlakatda qonuniy yashash huquqiga ega bo'lmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hibsga olinmasligi kerak. Ularda ko'pincha shaxsiy guvohnoma yoki pasport kabi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmaydi. Oldingi yashash mamlakati aniqlangan taqdirda ham, ko'pincha bu mamlakat shaxsni darhol qayta taniy olmaydi. Bunday vaziyatlarda davlat shaxslarni hibsga olishdan qochishi va bunga faqat xalqaro inson huquqlari qonunchiligiga mos keladigan ichki qonunchilikning aniq qoidalariga muvofiq murojaat qilishi kerak. Bunda, birinchi navbatda, ushlab turishga qaraganda boshqa muqobil yechimlarni ko'rib chiqish kerak, agar bu yechimlar shaxs uchun samarali bo'lmagani haqida dalillar mavjud bo'lmasa.

Qonuniy ravishda qolish huquqiga ega bo'lmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar boshqa barcha muqobil tanlovlar ko'rib chiqilgandan keyingina ushlab turilishi kerak. Ushlab turish to'g'risida istisno qaror qabul qilganda, hokimiyat uning maqsadga muvofiqligini aniqlashi lozim. Bunday qaror zarur deb topilgan taqdirda, ushlab qolish kamsitishsiz, ichki qonunchilik bilan tartibga solinishi, ushlab qolishning maksimal muddati davriy va huquqiy tekshiruv huquqi bilan amalga oshirilishi kerak.

## **O'zboshimchalik bilan ushlab qolish bo'yicha ishchi guruh**

BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi 1985-yildan beri o'zboshimchalik bilan hibsga olish holatlari ko'payib borayotganini ko'rib chiqmoqda. U kamsitishlarning oldini olish va ozchiliklarni himoya qilish bo'yicha quyi komissiyadan muammoni chuqur o'rganish va bunday holatlar sonini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni so'radi. Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga o'z huquqlari berilishini ta'minlash borasidagi tashvishlar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1988-yilning dekabr oyida har qanday shaklda ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to'plamining qabul qilinishiga turtki berdi. 1990-yilda quyi komissiya ma'ruzasining yuqorida qayd etilgan tavsiyalaridan kelib chiqib, Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'zboshimchalik bilan hibsga olish bo'yicha ishchi guruhini tuzdi. Keyinchalik ishchi guruh ushlab turish va qamoqqa olish bo'yicha quyidagi tamoyillarni qabul qildi:

## **1-tamoyil**

Chegarada yoki davlat hududiga noqonuniy kirib kelganida so'roq qilish uchun ushlab turilgan boshpana izlovchi yoki immigrant hech bo'lmaganda og'zaki va o'zi tushunadigan tilda chegarani kesib o'tishni rad etish sababi to'g'risida xabardor qilinishi yoki vaqtinchalik mamlakat hududida qolish to'g'risida ushbu shaxsga hurmat bilan ma'lum qilinishi kerak.

## **2-tamoyil**

Hibsda saqlanayotgan har qanday boshpana izlovchi yoki immigrant tashqi dunyo bilan, shu jumladan telefon, faks yoki elektron pochta orqali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishi hamda advokat, konsullik vakili va qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqiga ega bo'lishi kerak.

## **3-tamoyil**

Ozodlikdan mahrum etilgan har qanday boshpana izlovchi yoki immigrant sud yoki boshqa vakolatli organlarga kechiktirmasdan keltirilishi kerak.

## **4-tamoyil**

Ozodlikdan mahrum qilingan har qanday boshpana izlovchi yoki immigrant raqamlangan va tikilgan jurnalga imzo qo'yishi yoki unga muqobil kafolatlar, shu jumladan hibsga olingan shaxsning shaxsi, ushlab turilish sabablari va hibsga olish to'g'risida qaror qabul qilgan vakolatli organning nomi, shuningdek, shaxsni qabul qilish hamda erkinlikka chiqarish vaqti va sanasi ma'lum qilinishi kerak.

## **5-tamoyil**

Har qanday boshpana izlovchi yoki immigrant hibsonaga qabul qilingandan so'ng ichki tartib-qoidalar va kerak bo'lganda amaldagi intizom qoidalari hamda xat yozish va muloqot qilish huquqidan mahrum qilingan holda qamoqqa olish imkoniyati va bunday chora-tadbirlarni qabul qilish bilan birga keladigan kafolatlar to'g'risida xabardor qilinishi kerak.

## **6-tamoyil**

Qaror vakolatli organlar tomonidan yetarli darajada mas'uliyat bilan qabul qilinishi, shuningdek, qonunda belgilangan huquqiy asoslash mezonlariga rioya etilishi kerak.

## **7-tamoyil**

Ushlab qolishning maksimal muddati qonun bilan belgilanishi kerak va hech qanday holatda ushlab turish cheksiz yoki ortiqcha bo'lmasligi zarur.

## **8-tamoyil**

Ushlab qolish choralari to'g'risidagi xabar boshpana izlovchi yoki immigrant uchun tushunarli tilda yozma ravishda, choralarning sabablari ko'rsatilgan holda berilishi kerak. Shuningdek, u boshpana izlovchi yoki immigrantni hibsga olishning qonuniyligi to'g'risida zudlik bilan qaror qabul qilishi va iloji bo'lsa, ozod qilish to'g'risida buyruq berishi kerak bo'lgan huquqiy himoya uchun murojaat qilishi mumkin bo'lgan shartlarni belgilashi kerak.

## **9-tamoyil**

Ushlab qolish ushbu maqsad uchun maxsus ishlab chiqilgan davlat muassasasida amalga oshirilishi kerak. Agar amaliy sabablarga ko'ra buning iloji bo'lmasa, boshpana izlovchi yoki immigrant jinoiy hibsdan saqlanayotgan shaxslardan alohida muassasaga joylashtirilishi kerak.

## **10-tamoyil**

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi, shuningdek, vakolatli nodavlat tashkilotlar, agar kerak bo'lsa, qamoqda saqlash joylariga kirish imkoniga ega bo'lishi kerak.

### **Fuqarolikka ega emas deb tan olingan shaxslar qanday huquq va majburiyatlarga ega?**

Barcha shaxslar, ularning maqomidan yoki maxsus yurisdiksiya ostida bo'lishidan qat'i nazar, asosiy inson huquqlariga bo'ysunadilar. Bularga, masalan, qiynoqlarni taqiqlash va kamsitmaslik tamoyili kiradi. 1954-yilgi konvensiyada aytilishicha, uning qoidalari fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan "irqi yoki diniga ko'ra kamsitilmasdan va kelib chiqish mamlakatidan qat'i nazar" qo'llanilishi kerak (3-modda).

Har bir fuqaroligi bo'lmagan shaxs o'zi hududida bo'lgan davlatning qonunlari va qoidalariga amal qiladi (2-modda). Agar bu shart bajarilsa, 1954-yilgi konvensiyaning 7(1)-moddasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan himoyaning asosiy darajasini belgilaydi. Unda aytilishicha, 1954-yilgi konvensiyada yanada qulayroq tartib aniq belgilangan hollar bundan mustasno, "davlat fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga umuman chet elliklar kabi munosabatda bo'ladi".

1954-yilgi konvensiyada sanab o'tilgan huquqlarning ko'pchiligiga muvofiq, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hech bo'lmaganda chet elliklarga beriladigan huquq va imtiyozlardan, xususan daromad keltiradigan ish bilan shug'ullanish (17, 18 va 19-moddalar), uy-joy bilan ta'minlanish (21-modda) va harakat erkinligi (26-modda) bo'yicha hech bo'lmaganda teng huquqlarga ega bo'lishi kerak. Boshqa maxsus huquqlarga kelsak, ishtirokchi-davlatlar o'z hududida qonuniy istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ushbu davlat fuqarolariga taqdim etilgan standart shart-sharoitlarni, jumladan, diniy e'tiqod erkinligi (4-modda), kasbiy va mehnat huquqlari (14-modda) va boshlang'ich ta'lim (22-modda), davlat imtiyozlari (23-modda), mehnatni qayd etish va ijtimoiy ta'minotni (24-modda) ta'minlashi kerak.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishga oid qo'llanmasi davlatlarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun 1954-yilgi konvensiyada va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro qonunda belgilangan standart tartibni taqdim etishda yordam berishga qaratilgan.

### **Fuqarolikka ega emas deb tan olingan shaxslar shaxsiy guvohnoma va sayohat hujjatlarini olish huquqiga egami?**

1954-yilgi konvensiyada aytilishicha, ishtirokchi davlatlar amaldagi sayohat hujjatiga ega bo'lmagan va o'z hududida bo'lgan har bir fuqaroligi bo'lmagan shaxsga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni berishi kerak. 28-moddada qayd etilishicha, ishtirokchi davlatlar o'z hududida qonuniy istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga sayohat hujjatlarini berishlari shart, agar ular berilgan taqdirda milliy xavfsizlik va jamoat tartibiga tahdid soladigan jiddiy asoslar bo'lmasa.

Sayohat hujjatini taqdim etish fuqarolikni berishni nazarda tutmaydi, shuningdek, shaxsning maqomini o'zgartirmaydi.

28-moddaning ikkinchi qismi davlatlarni o'z hududida har qanday fuqaroligi bo'lmagan shaxsga, hatto qonuniy istiqomat qilish huquqiga ega bo'lmaganlarga ham sayohat hujjatlarini berishga chaqiradi. Davlatlar, shuningdek, o'z hududida bo'lgan va qonuniy yashash mamlakatidan sayohat hujjatini ololmaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga sayohat hujjatini berishi kerak. Ko'pgina fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning qonuniy yashash mamlakati bo'lmasligi mumkinligini hisobga olsak, ushbu qoida, ayniqsa, muhimdir. Sayohat hujjati fuqaroligi bo'lmagan shaxsning shaxsini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, unga tegishli davlatga kirishga ruxsat olish uchun harakat qilish imkonini beradi.

Sayohat hujjatlari fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun ta'lim, ishga joylashish, tibbiy yordam yoki ko'chirish uchun boshqa mamlakatlarga sayohat qilishni osonlashtirish uchun, ayniqsa, muhimdir. Konvensiya ilovasiga muvofiq, har bir ishtirokchi-davlat har qanday ishtirokchi-davlat tomonidan berilgan sayohat hujjatining haqiqiyiligini tan oladi. BMT QOKB bunday hujjatlarini berishda texnik yordam taklif qiladi. 1954-yilgi konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti va BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan "Qochoqlar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun mashinada o'qiladigan sayohat hujjatlarini berish bo'yicha qo'llanma"da belgilangan standartlar va talablarga muvofiq mashinada o'qiladigan sayohat hujjatlarini berishi kerak.

### **Davlat fuqarolikka ega emas deb topilgan shaxsni deportatsiya qilishi mumkinmi?**

1954-yilgi konvensiya shartlariga ko'ra, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat hududida qonuniy ravishda deportatsiya qilinishi mumkin emas, faqat milliy xavfsizlik yoki jamoat tartibiga tahdid soladigan hollar bundan mustasno. Deportatsiya qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi, davlat xavfsizligiga taalluqli hollar bundan mustasno.

Shunday qilib, fuqaroligi bo'lmagan shaxsga unga qarshi qo'yilgan har qanday da'vo bo'yicha javob berish va dalillarni taqdim etish, advokat tomonidan himoya qilish va shikoyat qilish huquqiga ega bo'lishi uchun protsessual kafolatlarni mavjud bo'lishi kerak.

1954-yilgi konvensiyaning yakuniy qoidasida aytilishicha, qaytarib yubormaslik tamoyili umume'tirof etilgan. Ta'qib qilish xavfi mavjud bo'lgan davlat hududiga qaytarib yubormaslik yoki qaytarmaslik tamoyili bir nechta xalqaro hujjatlar qoidalarida, shu jumladan 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiyaning 33-moddasida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo shakllariga qarshi konvensiyasining 3-moddasida ko'rsatilgan, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasida va inson huquqlari bo'yicha boshqa bir qator xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan.

1954-yilgi konvensiya mualliflari chet elga jo'natmaslik tamoyili xalqaro huquq tamoyillaridan biri sifatida qabul qilingandan so'ng, uni Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiya moddalariga kiritish zarurati yo'q, degan qarorga kelishdi.

Deportatsiya to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, 1954-yilgi konvensiyaga ko'ra, davlat shaxsga u boshqa davlat tomonidan tan olinishi uchun yetarli vaqt ajratishi kerak.

## Fuqarolikka ega emas deb tan olingan shaxslar uchun qanday fuqarolikka qabul qilish tartiblari mavjud bo'lishi zarur?

1954-yilgi konvensiyaga a'zo davlatlar fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni assimilatsiya qilish va fuqarolikka qabul qilish jarayoniga imkon qadar ko'proq yordam berishlari kerak ("Assimilatsiya" atamasi bu yerda o'z-o'zini identifikatsiya qilishni yo'qotish emas, balki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga integratsiyalashuvni anglatadi). Xususan, davlat fuqarolikka qabul qilish jarayonini soddalashtirish, shu jumladan, iloji bo'lsa, to'lovlar va komissiyalarni kamaytirishga harakat qilishi lozim.

Birlashgan Qirollikda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolikka qabul qilishning soddalashtirilgan tartib-qoidalaridan erkin foydalanishlari mumkin. Amalda, bu yashash uchun ruxsatnoma talabini qisqartirish (fuqaroligi bo'lgan chet elliklar uchun besh yildan uch yilgacha) va til yoki fuqarolik testlaridan o'tish shart emasligini anglatadi.

Ba'zi mamlakatlarda fuqarolik qonunchiligiga fuqarolikni olish uchun ariza bermoqchi bo'lgan qochqinlar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hududda qonuniy bo'lish muddatini qisqartirgan.

Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi ushbu masalani ko'rib chiqadi, ichki qonunchilikda qonuniy ravishda uzoq vaqt davomida mamlakatda istiqomat qiluvchi chet elliklar uchun fuqarolikka qabul qilish mumkin bo'lgan qoidalarini o'z ichiga olishi kerak. Konvensiya, shuningdek, istiqomat qilishga ruxsat olish uchun har qanday vaqt talabini maksimal 10 yil bilan cheklaydi; ushbu muddat tugagandan so'ng, shaxs fuqarolikni olish uchun ariza berishi mumkin. Mamlakatlarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va qochqinlar deb tan olingan shaxslarni fuqarolikka qabul qilishning tezlashtirilgan tartib-qoidalarini amalga oshirish tavsifiya etiladi.

## Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishning eng samarali usullari qanday?

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishning eng samarali usuli fuqarolikka ega emaslik holatlariga imkon bermaydigan qonunchilikni joriy etishdir (1961-yilgi konvensiyani to'liq muhokama qilish uchun "Fuqarolikka ega emaslikning oldini olish" bobiga qarang, shuningdek, davlatlarning fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha ko'rishi mumkin bo'lgan tegishli choralarga e'tibor bering).

Fuqarolikka ega emaslik muammosiga barham berilmaguncha, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar himoya qilinishi kerak. 1954-yilgi konvensiyaga qo'shilish va uni qo'llash fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va majburiyatlarini hurmat qilish imkonini beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 1954-yilgi konvensiya shaxslarning fuqaroligini o'zgartirmaydi, shuningdek, davlatlarni qochqin bo'lmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni o'z hududiga qabul qilishga majburlamaydi. 1954-yilgi konvensiya qoidalarini qo'llash fuqarolikni berish bilan teng emas. Mumkin bo'lgan hollarda, davlatlar o'z hududida yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni fuqarolik qonunlari va boshqa amaliyotlar orqali assimilatsiya qilish va fuqarolikka qabul qilishga yordam berishlari kerak. Fuqarolik yo'qligining keng ko'lami holatlarida fuqarolikni berish qoidalariga shunday o'zgartirish kiritilishi mumkinki, u davlat hududida yashovchi barcha shaxslar, agar ular ma'lum bir sanadan oldin ushbu hududda tug'ilgan (yoki yashagan) yoki bu shaxslarning avlodlari bo'lsa, uning fuqarosi hisoblanadi.

2007-yilda Qirg'izistonda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi, bu esa minglab fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga uni olish imkonini berdi. Qirg'iziston mustaqillikka erishganidan keyin o'n yildan ko'proq vaqt davomida Qirg'izistonda 40 mingga yaqin kishi fuqarolik maqomisiz yashab kelgan. Ularning aksariyati Sovet Ittifoqining boshqa davlatlaridan mamlakatga ko'chib kelgan va Qirg'iziston yoki Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgan boshqa davlatlarning fuqaroligini avtomatik ravishda olmagan etnik ozchiliklar edi.

2007-yilgi qonunga ko'ra, Qirg'iziston hududida fuqaroligi bo'lmagan va besh yildan ortiq vaqtdan beri yashab kelgan sobiq Sovet Ittifoqining barcha fuqarolari uning fuqarosi deb tan olindi.

Istisno hollarda, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z yashash mamlakatida huquqiy maqomga ega bo'lolmaydilar. Bunday odamlar uchun boshqa davlatga ko'chirish yechim bo'lishi mumkin. Turli davlatlarning ko'chirish mezonlari, odatda, fuqarolikka ega emaslik bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga olmaydi (ko'pincha qochqinlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ko'chirish qo'llaniladi), BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi ishtirokchi davlatlarni fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ushbu mezonlarga kiritishga chaqirdi. Ijroiya qo'mitasining 2003-yildagi 95-sonli qarorida ta'kidlanganidek:

**” Davlatlarga fuqarolikka ega emaslik holatlarini hal etish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, bunday vaziyatlarni ular istiqomat qilgan yoki ilgari bo'lgan mamlakatda hal qilib bo'lmaydigan hollarda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ko'chirish uchun joylar bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarl boshqarmasi bilan hamkorlik qilish tavsiya etiladi...”**

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarl boshqarmasi ishtirokchi davlatlarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning integratsiyalashuvi hamda ularni ko'chirish bo'yicha maslahat va yordam taklif qiladi.

# Fuqarolikka ega emaslikning oldini olish



📌 Bu bateydagi (plantatsiya yaqinidagi xaroba uylar) aksariyat bolalar fuqarolikka ega emas va asosiy inson huquqlaridan foydalana olmaydi. 2013-yilda Konstitutsiyaviy sud qarori chiqarilganidan beri Dominikan Respublikasining minglab aholisi, asosan, gaitiliklar fuqarolikdan mahrum qilingan. © BMT QOKB / Greg Konstantin, 2011

Fuqarolik yo'qligi ko'plab holatlarning natijasi bo'lishi mumkin. Quyida asosiy sabablarning ba'zilari, shuningdek, fuqarolik qonunchiligini qayta ko'rib chiqish orqali ushbu sabablarni bartaraf etish uchun davlatlar ko'rishi mumkin bo'lgan amaliy choralar ko'rib chiqiladi.

# Kamsitish yoki fuqarolikdan o'zboshimchalik bilan mahrum qilish bilan bog'liq sabablar

## Kamsitish

Davlatning fuqarolikni berish yoki rad etish to'g'risidagi qarorida uchraydigan asosiy qiyinchiliklardan biri – bu irqiy kamsitishning taqiqlanishidir. Bu tamoyil irqiy kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiyada, shuningdek, boshqa ko'plab huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. BMTning irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasining 2004-yil 1-oktabrdagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan kamsitish masalasi bo'yicha Umumiy tavsiyalarida shunday deyilgan:

**” Irqi, tana rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishiga ko'ra kamsitish tufayli fuqarolikdan mahrum qilish davlatning shaxslarga teng shartlarda fuqarolik huquqini berish bo'yicha majburiyatlarini buzish hisoblanadi”.**

Biroq ba'zida shaxslar ma'lum bir davlatning fuqaroligini, u bilan alohida aloqalarga ega bo'lishiga qaramay, qabul qila olmaydilar; boshqalar uchun esa bunday aloqalar fuqarolikni olishga yetarli bo'lgan bo'lardi. Dunyo bo'ylab fuqaroligi bo'lmagan odamlarning aksariyati etnik, diniy yoki lingvistik ozchilikka tegishli. Irqi, tana rangi, etnik kelib chiqishi, dini, jinsi, siyosiy mansubligi yoki boshqa sabablarga ko'ra kamsitish ko'pincha qonun hujjatlariga yoki uni qo'llash tamoyillariga aniq yoki beixtiyor kiritiladi. Qonun hujjatlarida noto'g'ri bayonotlar mavjud bo'lsa yoki u qo'llanilsa, natijada kamsituvchi vaziyat yuzaga kelsa, ushbu hujjat kamsituvchi deb hisoblanadi.

## Mazkur muammoning oldini olish uchun:

- Fuqarolikka nisbatan tenglik tamoyillari konstitutsiyaviy va fuqarolikka oid qonunlarda mustahkamlab qo'yilishi, ma'muriy-huquqiy qarorlar qabul qilishda ushbu tamoyillarni amalda qo'llash choralari ni ko'rish zarur.
- Davlatlar ham davlat ichida, ham boshqa davlatlar bilan hamkorlikda har bir bola tug'ilganda fuqaro bo'lishini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarini ko'rishlari kerak. Shunday qilib, nikohdan tashqarida tug'ilgan bolalar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan ota-onalarning farzandlari xalqaro huquqqa muvofiq fuqarolikka teng huquqlarga ega bo'lishi kerak.
- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ayollarga fuqarolikni olish, o'zgartirish yoki qayta olishda erkaklar bilan bir xil huquqlarni berishga harakat qiladi. Ushbu Konvensiya tamoyillariga muvofiq, erning fuqarolik holati xotinning fuqaroligini avtomatik ravishda o'zgartirmasligi, uning fuqaroligi yo'qligiga sabab bo'lmasligi, shuningdek, xotin erining fuqaroligini olish uchun zarur shart bo'lmasligi kerak.

## Fuqarolikdan mahrum qilish va uni olishdan bosh tortish

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aytilishicha, hech kim o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum etilishi mumkin emas. 1961-yilgi konvensiya va Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi davlatlarning fuqarolikni yo'qotish tashabbusi bilan chiqish imkoniyatini keskin cheklaydi. Har qanday yo'qotish to'liq protsessual kafolatlar bilan birga bo'lishi kerak va shaxslarning fuqaroligi yo'qligiga olib kelmasligi kerak. Ko'pincha fuqarolikdan mahrum qilish holatlari, odatda, kamsitish asosida davlat shaxsni yoki bir guruh shaxslarni fuqarolikdan mahrum qilganda paydo bo'ladi. Dunyo bo'ylab ko'plab fuqaroligi bo'lmagan odamlar o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum qilingan.

## Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- **Hech bir shaxs fuqarolikdan mahrum etilmasligi kerakligi haqidagi xalqaro huquqning asosiy tamoyiliga rioya qilish lozim, agar bu fuqarolikka ega emaslikka olib kelsa.**
- **1961-yilgi konvensiya bo'yicha istisnolar:**
  - ▶ firibgarlik yoki noto'g'ri ma'lumot yo'li bilan olingan fuqarolik;
  - ▶ chet elga doimiy yashash joyiga ko'chib o'tish munosabati bilan fuqaroligini yo'qotish (yuqoriga qarang);
  - ▶ rioya qilish va sodiqlik majburiyatiga mos kelmaydigan harakatlar yoki boshqa davlatga xizmatlar ko'rsatishni bevosita taqiqlash buzilgan taqdirda yoki davlatning asosiy manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlar (agar ushbu band qonun hujjatlarida konvensiyani imzolash vaqtida ko'rsatilgan bo'lsa);
  - ▶ qasamyod qilish yoki boshqa davlatga sodiqlik majburiyatini rasman e'lon qilish yoki davlatga sodiqlik majburiyatidan voz kechish (ushbu band konvensiyani imzolash vaqtida qonun hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lsa).

1980-yilda Iroqning ayrim hududlarida yashovchi, asosan, shia ozchilikni tashkil etuvchi Fayli kurdlari Saddam Husaynning farmoni bilan Iroq fuqaroligidan mahrum qilingan edi. Ularning mol-mulki musodara qilinib, ko'plari Eronga surgun qilingan va u yerda qochqinlar lagerlarida yashagan. Iroqning 2005-yilgi Konstitutsiyasi va 2006-yilgi "Iroq fuqaroligi to'g'risida"gi qonun Fayli kurdlarini fuqarolikdan mahrum qilgan avvalgi qonunni bekor qilib, sobiq hukumat tomonidan Iroq fuqaroligidan mahrum qilingan barcha shaxslar uni qayta olishi mumkinligini e'lon qildi. O'shandan beri 100 mingga yaqin odam Iroq fuqaroligini qaytadan olgan.

1961-yilgi konvensiyaning ishtirokchi-davlati shaxsni yuqorida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha fuqarolikdan mahrum qilishi mumkin, agar bunday qonun konvensiyaga qo'shilgan, imzolangan yoki ratifikatsiya qilingan paytda hamda qonunga va barcha tegishli protsessual kafolatlarga muvofiq mavjud bo'lgan bo'lsa, masalan, adolatli ish yuritish huquqi. Ishtirokchi-davlat irqiy, etnik, diniy yoki siyosiy sabablarga ko'ra shaxs yoki shaxslar guruhini fuqarolikdan mahrum etishga haqli emas.

- Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, agar, fuqarolikka ega emaslikka olib keladigan bo'lsa, davlatlarni fuqarolarni fuqarolikdan mahrum qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu hujjatga ko'ra, fuqarolikdan mahrum qilish faqat firibgarlik yoki noto'g'ri ma'lumot yo'li bilan olingan hollarda oqlanadi. Biroq fuqarolikdan mahrum qilish fuqarolik yo'qligiga sabab bo'lmaydi va davlat quyidagi hollarda shaxsni fuqarolikdan mahrum qilishi mumkin:
  - ▶ boshqa davlatning qurolli kuchlarida ixtiyoriy xizmat;
  - ▶ davlatning asosiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish;
  - ▶ davlat va odatda, chet elda yashaydigan shaxs o'rtasida haqiqiy aloqalarning yo'qligi;
  - ▶ milliy qonunchilikda ko'rsatilgan davlat fuqaroligini avtomatik ravishda olish uchun dastlabki shartlarni bajarmaslik (faqat voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladi);
  - ▶ asrab olingan bolaning ota-onasi yoki ikkala ota-onasining fuqaroligini olishi yoki unga egalik qilish.

## 1961 yilgi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaning asosiy qoidalari

### Fuqarolikni taqdim etish qoidalari (1, 2, 3 va 4-moddalar)

Fuqarolik fuqaroligi bo'lmagan va tug'ilishi bo'yicha davlat bilan aloqasi bo'lgan shaxslarga berilishi kerak. Fuqarolik quyidagi hollarda berilishi lozim:

- davlat hududida qonunning amal qilishi tufayli bola tug'ilganda;
- davlat hududida tug'ilgan shaxs tomonidan ma'lum yoshga yetganidan keyin qonunning amal qilishi tufayli, ichki qonunchilik shartlariga muvofiq;
- davlat hududida tug'ilgan shaxs tomonidan ariza berilgan taqdirda (murojaatda quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin: ariza berilishi mumkin bo'lgan muddat, sudlanganligining yo'qligi va/yoki shaxsda doimiy fuqaroligi yo'qligi fakti);
- onasi shu davlat fuqarosi bo'lgan bola tug'ilganda;
- meros orqali, agar, jismoniy shaxs o'zi tug'ilgan hududida ishtirokchi-davlat fuqaroligini yoshi yoki ushbu hududda yashashi uchun qo'yiladigan talablarga muvofiq qabul qila olmasa (quyidagi omillar hisobga olinadi: belgilangan muddat davomida ariza berilishi mumkin, hududda yashash uchun ma'lum talablar va/yoki shaxsning doimiy fuqarolikka ega emaslik statusi mavjudligi fakti);
- ishtirokchi davlat hududidan topilgan yetim bolalar;
- har qanday davlatda tug'ilgan bola tavallud topganda, agar, uning ota-onasidan biri ishtirokchi davlat fuqarosi bo'lsa;
- har qanday davlatda tug'ilgan jismoniy shaxsga murojaat qilganda, agar, tug'ilish vaqtida uning ota-onasidan biri ishtirokchi davlat fuqarosi bo'lsa (murojaatda quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin: ariza berish mumkin bo'lgan belgilangan muddat, hududda bo'lish uchun muayyan talablar, milliy xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun sudlanmaganligi va/yoki shaxsning doimiy fuqaroligi yo'qligi).

### Fuqarolikni yo'qotish yoki undan chiqish to'g'risidagi qoidalar (5, 6 va 7-moddalar)

Fuqarolikni yo'qotish yoki undan voz kechish, agar, boshqa davlat fuqaroligi mavjud bo'lsa yoki uni olish kafolatlangan bo'lsa, haqiqiy bo'lishi kerak. Istisno faqat rasmiyatchilik va vaqt cheklovlariga qaramay, ma'lum yillar davomida chet elda yashagan va avvalgi fuqaroligini saqlab qolish niyatida bo'lmagan fuqarolikka qabul qilingan fuqarolarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu holda fuqarolikka qabul qilingan fuqarolar, arizani rad etishi mumkin bo'lgan ishtirokchi-davlatga ariza berilganidan keyin fuqarolikni olgan fuqarolardir. Fuqarolikni yo'qotish faqat qonunga muvofiq sodir bo'lishi mumkin va to'liq protsessual kafolatlar, masalan, sud yoki boshqa mustaqil muassasada xolis tergov qilish huquqi bilan birga bo'lishi mumkin.

## **Fuqarolikdan mahrum qilish qoidalari (8 va 9-moddalar)**

Hech kim fuqarolikdan mahrum etilishi mumkin emas, agar, bu fuqarolik yo'qligiga olib keladigan bo'lsa:

- fuqarolik noto'g'ri ma'lumot berish yoki firibgarlik yo'li bilan olingan;
- shaxs sodiqlik majburiyatini bajarish majburiyatiga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni sodir etgan bo'lsa, masalan, aniq taqiqni buzish yoki davlatning asosiy manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlar;
- shaxs qasamyod qilgan yoki boshqa davlatga sodiqlik majburiyatini rasman e'lon qilgan yoki ishtirokchi davlatga sodiqlik majburiyatidan voz kechgan bo'lsa; yoki
- fuqarolikka qabul qilingan shaxs ishtirokchi-davlat bilan aloqani yo'qotgan va xabardor qilinganiga qaramay, o'z fuqaroligini saqlab qolish niyatini bildirmagan bo'lsa.

Ishtirokchi-davlat, agar, bu konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish va unga qo'shilish vaqtida ko'rsatilgan bo'lsa, yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuningdek, qonunga va tegishli protsessual kafolatlar, masalan, ishni obyektiv ko'rib chiqishga muvofiq shaxsni fuqaroligidan mahrum qilishi mumkin. Ishtirokchi-davlat irqiy, etnik, diniy yoki siyosiy sabablarga ko'ra shaxs yoki shaxslar guruhini o'z fuqaroligidan mahrum etishga haqli emas.

## **Hududni o'tkazish qoidalari (10-modda)**

Shartnomalar hududni o'tkazish paytida fuqarolik yo'qligi holatlari yuzaga kelmasligi uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak. Agar shartnoma imzolanmagan bo'lsa, davlat/davlatlar hududni o'tkazish yoki olish natijasida fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga aylanib qoluvchi odamlarga o'z fuqaroligini taqdim etishlari kerak.

## **Xalqaro tashkilotlar to'g'risidagi nizom (11-modda)**

Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotida konvensiya shartlariga ko'ra kompensatsiya talab qiladigan shaxs murojaat qilishi mumkin bo'lgan organni yaratishni talab qiladi. Ushbu murojaatlar tegishli organ tomonidan o'rganilishi kerak; Bosh Assambleya BMning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarlar boshqarmasidan ushbu majburiyatlarni bajarishni so'raydi.

## **Nizolarni hal qilish qoidalari (14-modda)**

Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi konvensiyani o'qish yoki qo'llash bo'yicha boshqa yo'l bilan hal qilinmagan nizolar nizo tomonlaridan birining iltimosiga binoan Xalqaro Sudga topshirilishi kerak.

## **Yakuniy qoida**

Yakuniy qoidaga ko'ra, "de-fakto fuqaroligi bo'lmagan shaxslar"ga, iloji boricha, ularga samarali fuqarolikni olish imkonini beradigan "de-yure fuqaroligi bo'lmagan shaxs" maqomi berilishi kerak.

# Texnik sabablar

## Qonunchilikdagi ziddiyat

Bir davlatning ichki qonunchiligi boshqa davlat qonuniga zid kelib, shaxslar fuqarolikdan mahrum bo'lib qolsa, muammolar paydo bo'ladi. Ikkala qonun ham to'g'ri ishlab chiqilishi mumkin, ammo ular birgalikda qo'llanilganda muammolar paydo bo'ladi. Masalan, shaxs tug'ilgan A davlat fuqarolikni faqat kelib chiqishiga ko'ra beradi ("jus sanguinis"), lekin uning ota-onasi B davlatning fuqarolari. B davlat, aksincha, fuqarolikni faqat tug'ilgan joyiga ko'ra beradi ("jus soli") va fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, chet elda tug'ilgan bolalar hech qanday holatda ushbu davlat fuqaroligini olmaydilar. Bunda fuqarolikka ega emaslik holati yuzaga keladi.

## Bunday muammolarning oldini olish uchun:

- 1930-yilgi Gaaga konvensiyasida ta'kidlanganidek, har bir davlat o'z qonunchiligiga muvofiq o'z fuqarolari kimligini belgilaydi. Boshqa davlatlar tomonidan tan olingan ushbu qonun xalqaro konvensiyalarga, an'analarga va fuqarolik masalasida qo'llaniladigan qonunlarning tan olingan tamoyillariga mos kelishi kerak. Shu sababli, davlatlar fuqarolik to'g'risidagi qonunlarning yangilangan to'plami bilan hisoblashlari, shuningdek, fuqarolikka ega emaslik bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun uni qo'llash tamoyillarini tushunishlari kerak. BMT QOKBning fuqarolik to'g'risidagi qonunlar to'plamini quyidagi havola orqali topishingiz mumkin: <http://www.refworld.org/statelessness.html>.
- 1961 yilgi Konvensiyada fuqarolik quyidagi holatlarda berilishi kerakligi aytilgan:
  - ▶ davlat hududidagi qonunning amal qilishi tufayli bola tug'ilganda;
  - ▶ davlat hududida tug'ilgan shaxs tomonidan ma'lum yoshga yetganidan keyin qonunning amal qilishiga ko'ra, ichki qonunchilik shartlariga muvofiq;
  - ▶ davlat hududida tug'ilgan shaxs tomonidan berilgan taqdirda, ariza (arizada quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin: ariza berish mumkin bo'lgan muddat, sudlanganligining yo'qligi va / yoki shaxsning doimiy fuqaroligi yo'qligi fakti);
  - ▶ meros orqali, agar, jismoniy shaxs o'zi hududida tug'ilgan ishtirokchi-davlat fuqaroligini yoshi yoki ushbu hududda yashashi bo'yicha talablarga muvofiq qabul qila olmasa (quyidagi omillar hisobga olinadi: belgilangan muddatda ariza berilishi mumkinligi, hududda yashash uchun ma'lum talablar va/ yoki ushbu shaxsning doimiy fuqaroligi yo'qligi fakti);
  - ▶ ishtirokchi davlat hududidan topilgan yetim bolalar;
  - ▶ har qanday davlatda tug'ilgan bolaga, agar, tug'ilish vaqtida uning ota-onasidan biri ishtirokchi davlat fuqarosi bo'lsa, qonunga muvofiq tug'ilganda; va
  - ▶ har qanday davlatda tug'ilgan jismoniy shaxs tomonidan murojaat qilinganda, agar, tug'ilish vaqtida uning ota-onasidan biri ishtirokchi davlat fuqarosi bo'lsa (arizada quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin: ariza ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan belgilangan muddat, taqdim etilgan hududda bo'lish uchun muayyan talablar, milliy xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun sudlanmaganlik va/yoki shaxsning doimiy fuqarolikka ega emasligi).
- davlatlar fuqarolik to'g'risidagi qonunlarda "jus soli" va "jus sanguinis" kabi ta'riflardan aholining umumiy sonini va tug'ilishda fuqarolik qanday berilishini aniqlash uchun foydalanadilar. Ikki fuqarolikni tan olmaydigan davlatlar ma'lum yoshga kelib shaxs yoki uning ota-onasi ikki fuqarolikdan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash uchun choralar ko'rishlari kerak.

## Fuqarolikdan chiqish to'g'risidagi qonun hujjatlarida mavjud nomuvofiqliklar

Ba'zi davlatlarda fuqarolarga avvalambor boshqa davlat fuqaroligini olmasdan yoki uni keyinchalik olish kafolatlarisiz fuqarolikdan chiqishga ruxsat beruvchi qonunlar mavjud. Bu ko'pincha fuqarolikdan mahrum bo'lishga olib keladi. Ushbu masala bo'yicha qonunlarning tafovuti, agar, bir davlat boshqa davlat fuqaroligini olmagan holda o'z fuqaroligidan chiqishga ruxsat bermasa, boshqa davlat birinchisining fuqaroligidan voz kechmasdan fuqarolik berish huquqiga ega bo'lmasa, yuzaga kelishi mumkin. Ba'zida shaxs o'z yashash mamlakatida fuqarolikni olish uchun ariza berishdan oldin fuqarolikdan voz kechishi kerak. Shunday qilib, yangi fuqarolikni olmaguncha, shaxs apatrid bo'lib qoladi.

### Bunday muammolarning oldini olish uchun:

- 1961-yilgi konvensiyaga muvofiq, fuqarolikni yo'qotish yoki undan voz kechish faqat fuqarolik mavjudligi yoki uni boshqa davlatdan olish kafolatlari asosida amalga oshirilishi kerak.
- fuqarolik qonunchiligi hech bir shaxs boshqa davlat fuqaroligini olmasdan yoki uni olish uchun vakolatli organlarning rasmiy yozma kafolatsiz fuqarolikdan chiqa olmasligini ta'minlash choralarini ko'rishi kerak.
- 1961-yilgi konvensiya, hatto keyinchalik fuqarolik yo'qligi yuzaga kelgan taqdirda ham, fuqarolikni yo'qotish mumkin bo'lgan istisnolarni belgilaydi. Bu rasmiyatchiliklar va muddatlar to'g'risidagi bildirishnomalarga qaramay, uzoq vaqt davomida chet elda istiqomat qiluvchi va fuqaroligini saqlab qolish xohishini bildirmaydigan fuqarolikka qabul qilingan shaxslarga taalluqlidir. Bunday holatda fuqarolikka qabul qilingan shaxs, garchi u rad etish huquqiga ega bo'lsa ham, ishtirokchi-davlatga ariza berish orqali fuqarolikni olgan shaxs hisoblanadi. Fuqarolikni yo'qotish faqat qonunga muvofiq sodir bo'lishi va to'liq protsessual kafolatlar bilan birga bo'lishi mumkin, masalan sudda yoki boshqa mustaqil organlarda obyektiv ko'rib chiqish orqali.
- ba'zi davlatlarda, agar, shaxs boshqa davlat fuqaroligini yo'qotgan yoki olmagan bo'lsa, fuqarolikni qayta qabul qilishga ruxsat beruvchi qoidalar mavjud.
- ikki yoki ko'p fuqarolikni qabul qilmaydigan davlatlar uchun fuqarolik qonunchiligi fuqarolikni olish yoki saqlab qolish uchun shart bo'lgan boshqa davlat fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi talabni, agar, bunday chiqish imkoni bo'lmasa, olib tashlashni ta'minlashi kerak. Masalan, qochqinlar mamlakatga qaytishlari yoki fuqarolikdan voz kechish uchun o'zlari qochib kelgan mamlakatning rasmiylariga murojaat qilishlari shart emas.

### Ibratli tajriba: Rossiya Federatsiyasi

Sovet Ittifoqining parchalanishi millionlab odamlarni fuqaroliksiz qoldirdi. Rossiya Federatsiyasi deb nomlangan yangi mustaqil davlatda 1991-yildagi "Fuqarolik to'g'risida"gi Federal qonunda belgilangan qoidalar Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtincha yashovchi shaxslarning fuqaroligini olishi mumkin bo'lgan muddatni belgilab berdi. Ushbu qoidalarga muvofiq, Rossiya Federatsiyasida doimiy yashash maqomini tasdiqlay olmagan shaxslar uning fuqaroligini ololmaydilar.

1990-yillarning oxiriga kelib, Rossiya Federatsiyasida yashovchi sobiq Sovet Ittifoqining ko'plab fuqarolari o'sha davlat yoki ular bilan aloqada bo'lgan boshqa davlatlar fuqarosi bo'lish uchun hech qanday choralar ko'rmagan edi. Ba'zilar avtomatik ravishda boshqa mustaqil davlatlarning fuqarolariga aylanishdi, boshqalar esa fuqarolikdan mahrum bo'lib qolishdi, chunki shaxsiy sharoitlar ularga biron bir davlat fuqaroligini olishga to'sqinlik qildi.

Sobiq Sovet Ittifoqining ko'plab fuqarolari Rossiya Federatsiyasida tegishli maqomdan mahrum bo'lganligini bilib, Rossiya hukumati 1991-yildagi "Fuqarolik to'g'risida"gi qonunni isloh qilish tashabbusi bilan chiqdi. Fuqarolik to'g'risidagi yangi qonun 2002-yil 1-iyulda kuchga kirdi va 2003-yilda Rossiya Federatsiyasida yashovchi sobiq Sovet Ittifoqi fuqarolariga Rossiya Federatsiyasi fuqaroligini olishni osonlashtirish uchun qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi.

Uning fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirgan asosiy qoidasi vaqtinchalik yoki doimiy yashash uchun ruxsatnoma berish orqali sobiq Sovet Ittifoqi fuqarolarini fuqarolikka qabul qilish orqali Rossiya fuqaroligini olishni soddalashtirish bo'yicha vaqtinchalik chora-tadbirlarga tegishli edi. Ushbu tartib Rossiya Federatsiyasi hududida ma'lum bir fuqarolik holatiga ega bo'lmagan sobiq Sovet Ittifoqi fuqarolari uchun qiyin bo'lgan talablarni, ya'ni ushbu hududda besh yil davomida doimiy yashash huquqini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish sharti, moliyaviy mustaqillik va malakasini tasdiqlovchi hujjat hamda rus tili bo'yicha bilim darajasi kabilarni bekor qildi. Ariza beruvchilar endi fuqarolik to'lovlarini to'lashlari shart emas edi. Bunday tartib amalga oshirilgan olti yil davomida jami 2 679 225 kishi Rossiya fuqaroligini oldilar, ulardan 575 044 nafari fuqaroligi bo'lmagan shaxslar edi. Bu so'nggi o'n yil ichida davlatlarning fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish bo'yicha eng muvaffaqiyatli harakatlaridan biridir.

Ushbu islohotdan so'ng, Rossiya hukumati 2012-yilda oldingi islohotlarga qaramay, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqaroligini soddalashtirish uchun qo'shimcha tuzatishlar kiritdi. Unga ko'ra, fuqarolarning istiqomat qilishga ruxsat olish uchun ro'yxatdan o'tish talabi bekor qilindi. Bundan tashqari, 2012-yilgi tuzatishlar Rossiya Federatsiyasi pasportlarini olgan, keyin esa pasportlar ma'muriy xatolik tufayli berilganligi sababli ularni yo'qotgan sobiq Sovet Ittifoqi fuqarolariga nisbatan soddalashtirilgan fuqarolikka qabul qilish tartibini kengaytirdi.

## Bolalarga tegishli qonunlar va amaliyotlar

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ta'kidlanganidek, barcha bolalar, ularning tug'ilgan joyi va ota-onalari maqomidan qat'i nazar, tug'ilgandan keyin darhol o'zlari tavallud topgan davlatning davlat organlarida ro'yxatga olinishi kerak. Barcha bolalar fuqarolik huquqiga ega. Bolaning fuqaroligi tegishli davlatlarning qonunlariga muvofiq belgilanadi, barcha davlatlar bolaning qayerda va kimdan tug'ilganligini tushuntirishni talab qiladi. Tug'ilganlik faktini tasdiqlovchi hujjatsiz bolaning kelajakda o'z millatini (tug'ilgan joyi va ota-onasining shaxsini) aniqlashi va fuqarolikni olishi qiyin bo'ladi.

### Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- Davlatlar tegishli mahalliy ma'muriyatlarni Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 7-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 24-moddasiga muvofiq tug'ilishning tizimli ravishda ro'yxatga olinishini ta'minlash uchun barcha zarur resurslarni taqdim etishlari kerak. Agar kerak bo'lsa, xalqaro hamjamiyatdan, xususan, Bolalar jamg'armasi (UNICEF)dan yordam olish kerak.
- Tug'ilganlikni ro'yxatga olishda davlatlar nizoli fuqarolik holatlarini aniqlashlari va bolaning fuqaroligi bo'lmagan taqdirdagina fuqarolikni berishlari kerak. 1961-yilgi konvensiyaning tegishli qoidalari ichki qonunchilikka kiritilishi zarur. Ushbu qoidalar, agar, davlat 1961-yilgi konvensiyaga qo'shilmagan bo'lsa ham, mahalliy qonunlarga kiritilishi kerak.
- Davlatlar, ayniqsa, o'z hududida tug'ilgan, ammo fuqaroligi bo'lmagan bolalar uchun fuqarolikni olish bo'yicha choralar ko'rishlari kerak. Ular, masalan, bola chet ellik ota-onasining fuqaroligini ololmaydigan hollarda fuqarolik yo'qligining oldini oladi.

Ko'pgina mamlakatlarda ayollarga o'z fuqaroligini farzandlariga o'tkazishga ruxsat berilmaydi. Bu ota fuqaroligi bo'lmagan, uning shaxsi noma'lum bo'lgan yoki o'z fuqaroligini bolaga o'tkaza olmagan hollarda fuqarolikka ega emaslikka olib kelishi mumkin.

### **Ushbu muammoning oldini olish uchun:**

- 1957-yildagi Turmush qurgan ayolning fuqaroligi to'g'risidagi konvensiya hamda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, ayollar o'z farzandlarining fuqaroligi bo'yicha erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu tamoyillarning ichki qonunchilikda qo'llanilishi ayollarga nisbatan kamsitish va bolalarning fuqaroliksiz qolib ketish ehtimolining oldini oladi.
- Davlatlar milliy fuqarolik to'g'risidagi qonunlarga gender diskriminatsiyasini bartaraf etish qoidalarini kiritishlari zarur.

2010-yilda Keniyada yangi Konstitutsiya qabul qilindi va yangi huquqiy islohot ko'plab sohalarda, jumladan, fuqarolik sohasida ham amalga oshirildi. Yangi Konstitutsiya hamda "Fuqarolik va Immigratsiya to'g'risida"gi qonun fuqarolikka ega emaslikka qarshi bir qancha asosiy qoidalarni, jumladan, yetim bolalarga fuqarolikni berish tartibini joriy etdi. Bu kafolatlar fuqarolikka oid barcha masalalarda erkaklar va ayollarning tengligini ta'minlaydi.

Yetim va tashlab ketilgan bolalar ko'pincha ma'lum bir millatga ega emaslar. Nikohsiz tug'ilgan bolalar ham fuqarolikni olishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

### **Ushbu muammoning oldini olish uchun:**

- Davlat hududida topilgan yetim bolalar o'sha davlat fuqaroligini olishlari shart. Ushbu tamoyil ko'plab davlatlarning fuqarolik qonunchiligida, shuningdek, fuqarolikka oid xalqaro hujjatlarda, shu jumladan, 1961-yilgi konvensiyada mavjud.
- Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar tamoyillarini qo'llashda davlatlar nikohdan tashqari tug'ilgan bolalarni kamsitmasliklari kerak (xalqaro huquq ba'zi hollarda muomalada farqlarga yo'l qo'yishi mumkin).
- Bolaning fuqaroligini aniqlashda uning manfaatlari doimo birinchi o'rinda turishi kerak.

Ba'zi davlatlarda farzand asrab olish amaliyoti, masalan, farzand uni asrab oluvchilarning fuqaroligini ololmasa, fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolishiga olib kelishi mumkin.

### **Ushbu muammoning oldini olish uchun:**

- Davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq xorijda farzand asrab olishlar ichki qonunlar tomonidan tan olinishini ta'minlash uchun o'z qonunchiligiga tegishli qoidalarni joriy etishlari kerak. 1967-yildagi Bolalarni asrab olish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi davlatlarni ushbu davlat fuqarolari tomonidan asrab olingan bolalarning fuqaroligini olish tartibini yengillashtirishga chaqiradi.

## Ma'muriy amaliyotlar

Fuqarolikni olish, saqlash, mahrum qilish va fuqarolikni yo'qotish bilan bog'liq ko'plab ma'muriy va protsessual masalalar mavjud. Agar biror kishi fuqarolikni olish uchun ariza berishi mumkin bo'lsa ham, yuqori ma'muriy to'lovlar, asossiz muddatlar va/yoki boshqa davlatda bo'lganligi sababli kerakli hujjatlarni taqdim eta olmasligi uning fuqarolikni olishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday to'siqlar avtomatik ravishda davlat fuqaroligini olgan shaxslarning o'z shaxsini va fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlarni, masalan, shaxsiy guvohnoma, fuqarolik guvohnomasi yoki pasportni olishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

### Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- Fuqarolikni berish, saqlab qolish, rad etish yoki tasdiqlash to'g'risidagi arizalar tegishli vaqt ichida ko'rib chiqilishi kerak. Jarayon imkon qadar sodda va ochiq bo'lishi zarur.
- Doimiy rezidentlarga avtomatik ravishda (sobiq) fuqarolikni olish yoki fuqarolikni yo'qotish, shu jumladan, yangi davlat tashkil etilgan hollarda ham berilishi kerak; buning uchun yozma guvohnoma talab qilinmasligi kerak, garchi davlatlar, odatda, fuqarolikka oid barcha qarorlarni yozma qayd qilishni rag'batlantirsalar ham.
- Fuqarolikni olish, saqlash, rad etish, tiklash yoki tasdiqlash uchun yig'imlar hamda tegishli ma'muriy va huquqiy ko'rib chiqishlar, shuningdek, hujjatlarga qo'yiladigan talablar o'rtacha bo'lishi kerak.

### Ayollarga oid qonunlar va amaliyotlar

Ba'zi davlatlar chet el fuqarosiga uylanganidan keyin ayolning fuqarolik maqomini avtomatik ravishda o'zgartiradi. Shundan so'ng, agar, ayol erining fuqaroligini olmasa yoki fuqaroligi bo'lmasa, fuqaroligi bo'lmagan holda qolishi mumkin.

Ayol, shuningdek, turmush qurgandan keyin erining fuqaroligini olgan bo'lsa, nikoh buzilgan taqdirda u nikoh paytida olingan fuqaroligini yo'qotsa, lekin sobiq fuqaroligini tiklash huquqiga ega bo'lmasa, fuqaroligi bo'lmagan holda qolishi mumkin.

### Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ayollarga fuqarolikni olish, o'zgartirish va saqlab qolish uchun erkaklar bilan bir xil huquqlarni beradi. Konvensiya tamoyillariga ko'ra, erining fuqarolik maqomi avtomatik ravishda xotining fuqaroligini o'zgartira olmaydi, uni fuqarolikdan mahrum qila olmaydi, shuningdek, ayolning fuqaroligini o'zgartirishi uchun majburiy sabab bo'lmaydi.
- Ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lmagan va turmush qurgandan so'ng o'z fuqaroligini avtomatik ravishda yo'qotishi mumkin bo'lgan yoki nikohdan keyin ayollar o'z fuqaroligidan voz kechishi shart bo'lgan davlatlarda, ajrashgandan so'ng, ayollarga o'z fuqaroligini avtomatik ravishda ariza orqali qaytarishga ruxsat beruvchi qoidalarni ichki qonunchilikka kiritish kerak.

## Avtomatik ravishda fuqarolikni yo'qotish

Ba'zi davlatlar ushbu davlatni tark etgan va chet elda istiqomat qilgan shaxsning fuqaroligini avtomatik ravishda bekor qiladi. Jismoniy shaxs chiqib ketganidan keyin bir necha oy o'tgach sodir bo'lishi mumkin bo'lgan fuqarolikdan mahrum qilish ko'pincha ma'muriy noto'g'ri boshqaruv natijasida yuzaga keladi, bunda shaxs mamlakat hokimiyat idorasida muntazam ro'yxatdan o'tmagan holda fuqarolikdan mahrum qilish xavfi haqida xabardor qilinmaydi. Agar shaxs u yerda tug'ilgan yoki meros qilib olingan fuqarolik emas, balki mamlakat fuqaroligiga qabul qilingan shaxs hisoblansa, hatto muntazam ro'yxatdan o'tish ham fuqarolikni saqlab qolish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunday harakatlar ko'pincha fuqarolikka ega emaslikka olib keladi.

### Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- 1961-yilgi konvensiyaning 7(3)-moddasida aytilishicha, shaxs chiqib ketishi, chet elda yashashi, ro'yxatdan o'tmaganligi yoki boshqa sabablarga ko'ra fuqaroligini yo'qota olmaydi. 1961-yilgi konvensiyada chet elda ketma-ket yetti yildan ortiq istiqomat qiluvchi fuqarolikka qabul qilingan shaxslar uchun ushbu tamoyil istisno qilinishi qayd etilgan. Bu shaxslar tegishli organni fuqarolikni saqlab qolish istagi haqida, masalan, pasportini yangilash orqali xabardor qilishlari kerak. Buning uchun davlatlar fuqarolikka qabul qilingan shaxslarni davlat hududida, shuningdek, undan tashqarida konsullik idoralari orqali bunday siyosat mavjudligi haqida xabardor qilishlari kerak.
- Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi kabi so'nggi hujjatlarga muvofiq, agar, ushbu jarayon shaxsni fuqaroliksiz qolishiga sabab bo'ladigan bo'lsa, davlatlarga chet elda doimiy yashashi sababli shaxsni fuqarolikdan mahrum qilishga ruxsat berilmaydi.

## Davlatlarning shakllanishi bilan bog'liq sabablar

### Hudud yoki suverenitetni o'tkazish

Garchi bu masala muayyan xalqaro hujjatlar va tamoyillarda qisman hal qilingan bo'lsa-da, hudud yoki suverenitetning o'tkazilishi uzoq vaqtdan beri fuqarolikka ega emaslikning sababi bo'lib kelgan. Hududiy o'zgarishlar yoki suverenitet o'zgargan taqdirda ichki qonunlar va amaliyotlar muqarrar ravishda o'zgaradi, masalan, davlatning mustamlakachilikdan mustaqil bo'lishi, davlatning parchalanishi yoki yangi davlatning tashkil topishi, shuningdek, davlatning bir qismi mamlakatning asosiy hududidan ajralib chiqishi kabilarda. Ushbu o'zgarishlarning har biri fuqarolik to'g'risidagi yangi qonunlar yoki qarorlar va/yoki ma'muriy tartib-qoidalarning qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxslar, agar, ular yangi qonunlar/qoidalar yoki yangi ma'muriy tartib-qoidalar asosida fuqarolikni ololmasalar yoki avvalgi qonunlar va amaliyotlarni qayta ko'rib chiqish tufayli fuqarolikni olishdan bosh tortsalar, fuqarolikdan mahrum bo'lib qolishi mumkin.

### Ushbu muammoning oldini olish uchun:

- 1961-yilgi konvensiyaning 10-moddasida aytilishicha, ishtirokchi-davlatlar hududni o'tkazishda fuqarolikka ega emaslik holatlari yuzaga kelmasligini ta'minlash uchun choralar ko'rishlari kerak. Davlatlar bir tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarni imzolashlari lozim, shartnomalar hududlarni o'tkazish paytida shaxslar fuqarolikdan mahrum bo'lishining oldini olishga qaratilgan qoidalarni o'z ichiga olishi kerak. Bunday shartnomani imzolamagan holda, davlatlar fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga fuqarolikni berishlari kerak, aks holda ushbu shaxslar apatrid bo'lib qolishlari mumkin.

- Amalda aholi ma'lum bir hudud bilan aloqaga ega, ammo ba'zi xalqaro shartnomalar, konstitutsiyaviy qoidalar, shuningdek, fuqarolik qonunchiligi davlatlardan birining fuqaroligini olishni taklif qiladi.
- Vorislik to'g'risidagi shartnomalar, shuningdek, davlatlarning parchalanishi yoki shakllanishi fuqarolikka qanday ta'sir qilishiga qaratilgan qoidalarni o'z ichiga olishi mumkin.
- Davlatlar vorisligida fuqarolikka oid xalqaro huquqni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida BMTning Xalqaro huquq komissiyasi ushbu mavzu bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining 2001-yildagi 55/153-sonli rezolyutsiyasi ilovasida keltirilgan maqolalarni tayyorladi. Maqolada aytilishicha:
  - ▶ barcha davlatlar davlat vorisligi vaqtida oldingi davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar buning oqibatida fuqarolikdan mahrum bo'lib qolmasliklari uchun choralar ko'rishlari kerak;
  - ▶ vorislik vaqtida doimiy yashash joyi boshqa davlatga o'tgan hududda bo'lgan shaxs voris davlat fuqaroligini olishi kerak;
  - ▶ merosxo'r davlat doimiy yashash joyi boshqa davlat hududida bo'lgan shaxslarga, agar, ular boshqacha tarzda fuqaroligidan mahrum bo'lmagan bo'lsa, o'z fuqaroligini bermasligi kerak;
  - ▶ davlatlar ikki yoki undan ortiq davlat fuqaroligini olish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslarning istaklarini hisobga olishlari kerak. Har bir davlat ushbu davlat bilan tegishli aloqaga ega bo'lgan shaxslarga, agar, ular fuqaroligi bo'lmagan holda qolsa, o'z fuqaroligini tanlash huquqini berishi kerak;
  - ▶ davlatlar jismoniy shaxslarning fuqarolikni saqlab qolish yoki olish huquqini yoki kamsitish asosida fuqarolikni tanlash huquqini rad etmasligi kerak.
- Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va 2006-yilgi Yevropa Kengashining Davlatlarning merosxo'rliги munosabati bilan fuqarolikdan mahrum bo'lishning oldini olish to'g'risidagi konvensiyasi 1961-yilgi konvensiya qoidalarini birlashtiradi. Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi davlat vorisligi va fuqarolik to'g'risidagi butun bobni o'z ichiga oladi hamda to'rtta asosiy tamoyilga urg'u beradi:
  - ▶ shaxs va davlat o'rtasidagi aloqaning mavjudligi;
  - ▶ davlat vorisligi davrida shaxsning doimiy yashash joyi;
  - ▶ shaxsning xohish-istaklari;
  - ▶ shaxsning hududiy kelib chiqishi.

Bundan tashqari, fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida merosxo'r davlatning fuqarosi bo'lmagan, merosxo'r davlatga o'tgan hududda istiqomat qilgan va ushbu davlat fuqaroligini olmagan shaxslar uning hududida qolish huquqiga ega bo'lishi kerakligi, shuningdek, ular ushbu davlat fuqarolari uchun barcha ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga ega bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi.

- Yevropa Kengashi konvensiyasi davlatlarning merosxo'ri bo'lgan taqdirda fuqarolikka oid maxsus dalillar qoidalarini ishlab chiqdi (8-modda):

**9” Voris davlat vorislik natijasida fuqaroligi bo’lmagan shaxsga aylanib qolishi mumkin bo’lgan yoki shunday shaxsga aylanib qolgan shaxslarga fuqarolik berish bo’yicha standart talablarga rioya qilishni talab qilmasligi kerak, basharti, standart talablarga rioya qilish majburiy hisoblanmasa.**

**Voris davlat vorislik paytida uning hududida yashovchi shaxslarga, shuningdek, vorislik natijasida fuqaroligi bo’lmagan shaxsga aylanib qolishi mumkin bo’lgan yoki shunday shaxsga aylanib qolgan shaxslarga fuqarolik berish uchun shaxs boshqa davlat fuqaroligini olmaganligini isbotlashni talab qilmasligi kerak”.**

8-moddaniyning 1-bandi fuqarolik uchun standart dalil talablarini qondirish mumkin bo’lmagan yoki juda qiyin bo’lgan vaziyatni nazarda tutadi. Ba’zi hollarda, masalan, fuqarolik holati dalolatnomalari arxivlari yo’q qilingan bo’lsa, shaxs o’zining kelib chiqishi to’g’risidagi to’liq hujjatli dalillarni taqdim eta olmaydi. Ushbu qoida shaxs dalil taqdim etishi mumkin bo’lgan holatlarga ham taalluqlidir, lekin buni talab qilish asossiz hisoblanadi, masalan, agar bu talab shaxsning sog’ligi yoki hayotiga tahdid solishi mumkin bo’lsa. Dalillarni olishda qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin bo’lgan holatlar har doim ham davlatning vorisligi bilan bevosita bog’liq emas. Ular undan oldin yoki undan keyin sodir bo’lgan voqealar bilan bog’liq bo’lishi mumkin, masalan, avvalgi davlat hukmronligi ostida fuqarolik daftarlari yo’q qilingan yoki muhim hujjatlar aholining ma’lum bir qismiga berilmagan bo’lishi mumkin. Bunday hollarda dalil va/yoki mustaqil guvohlikning yuqori ehtimoli voris davlat fuqaroligini olish shartlarini qondirish uchun yetarli bo’lishi kerak.

8-moddaniyning 2-bandi faqat avvalgi davlat mavjud bo’lmagan taqdiridagina qo’llanilishi mumkin va ushbu davlatning fuqaroligiga ega bo’lgan barcha shaxslar mazkur davlat yo’qolganidan keyin fuqaroligini yo’qotgan bo’lsa. Voris davlat ko’p fuqarolikka ega bo’lishga to’sqinlik qilsa yoki qisqartirsa, davlat shaxsdan u boshqa davlat fuqaroligini olmaganligini yoki uning fuqaroligi yo’qligini isbotlashni talab qilishi mumkin. Boshqa millat yoki fuqaroligi yo’qligini isbotlash talabini ko’pincha bajarish mumkin emas, chunki bu davlatlar hamkorligiga bog’liq. Agar shaxsning davlat merosxo’rligi natijasida fuqaroligi bo’lmagan holda qolishi xavfi mavjud bo’lsa, voris davlat fuqarolikni berish uchun shaxsning boshqa fuqaroligi yo’qligi yoki fuqaroligi bo’lmaganligini isbotlashni talab qilmasligi kerak. Ushbu qoida fuqarolikka ega emaslikning oldini olish xalqaro hamjamiyatning mas’uliyati bo’lishi kerakligi haqidagi ustuvor fikrga asoslanadi, shu bilan birga, ko’p fuqarolikka ruxsat berish yoki taqiqlashni har bir davlat mustaqil hal qilishi kerak.

Bu qoidalar o’z hududidagi ko’p fuqarolikka ega bo’lganlar sonini kamaytirmoqchi bo’lgan davlatga boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish hamda fuqarolikni olish va yo’qotish bo’yicha ma’lumot almashishga to’sqinlik qilmaydi. Ko’p fuqarolik 1930-yildagi Fuqarolik qonunlari o’rtasidagi ziddiyatlarga oid ayrim masalalar to’g’risidagi Gaaga konvensiyasida ko’rsatilgan boshqa fuqarolikni tan olmaslik qoidalarini qo’llash orqali, shuningdek, 71-moddani qo’llash orqali tugatilishi mumkin. Fuqarolik to’g’risidagi Yevropa konvensiyasi, shaxs boshqa davlat fuqaroligini ixtiyoriy ravishda qabul qilgan taqdirda, fuqarolikni avtomatik ravishda yo’qotish imkoniyatini belgilaydi. Davlat, shuningdek, shaxsdan boshqa fuqarolikka ega bo’lishni istamasligini yozma ravishda bayon etishni so’rashi mumkin. Bu, agar, shaxs soxta da’vo qilgani keyinchalik aniqlansa, davlat uning fuqaroligini bekor qilishga imkon beradi.

# BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining roli



📷 O'zbekistondan Ukrainaga ko'chib kelgan koreys millatiga mansub bu fuqaroligi yo'q erkak ukrainalik ayol bilan o'n yildan ortiq yashaganiga qaramay, ular nikohlarini rasman qayd eta olmadilar. © BMT QOKB / Greg Konstantin, 2010

1950-yilda tashkil etilgan BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va apatridlar masalalari bilan shug'ullanadi. BMT tomonidan ushbu tashkilotga qochqinlarni himoya qilish hamda ularning ahvolini yaxshilashda ko'maklashish vazifasi topshirilgan. Yillar davomida tashkilot yordam bergan ko'plab qochqinlar fuqarolikka ham ega emas edi. So'nggi o'n yilliklarda himoyani yo'qotish yoki himoya qilishni rad etish va fuqarolikni yo'qotish yoki uni rad etish o'rtasidagi bog'liqlik tobora ko'proq sezilib bormoqda. Shuningdek, fuqarolikka ega bo'lish va u bilan bog'liq huquqlarni amalga oshirish qobiliyati deganda odamlarning majburiy va ixtiyoriy ravishda ko'chirilishining oldini olishga ko'maklashish tushuniladi. 1995-yildan beri BMT Bosh Assambleyasi qochqin hisoblanmaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish hamda kengroq miqyosda fuqarolikka ega emaslikning oldini olish va qisqartirish bo'yicha vakolatlarni berish orqali idoraning mas'uliyatini kengaytirdi. Ushbu qarorlar global miqyosda qabul qilinadi va BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi faoliyatini faqat fuqarolikka ega emaslik bo'yicha konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlar bilan cheklamaydi.

## **BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fuqarolikka ega emaslik bilan bog'liq muammolarga qanday aralashdi?**

Vaqt o'tishi bilan fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga yordam ko'rsatishda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining roli kengayib bordi. Fuqarolikka ega emaslik sohasidagi ishlar BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarini, shuningdek tashkilot boshqaruv organining tavsiyalari – BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi dasturini boshqarishdan iborat. Ijroiya qo'mitasi a'zolari qochqinlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga bildirgan qiziqishlari asosida BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan saylangan ishtirokchi-davlatlar vakillaridan (2014-yilning yanvar holatiga ko'ra 87 ta davlat) iborat.

1961-yilgi konvensiyaning 11-moddasida “konvensiyaga bo'ysunuvchi shaxs arizani ko'rib chiqish va uni tegishli organga topshirishda yordam so'rash uchun murojaat qilishi mumkin bo'lgan organni” tashkil etish zarurligi belgilangan. 1961-yilgi konvensiya kuchga kirgandan so'ng, BMT Bosh Assambleyasi Qochoqlar bo'yicha Oliy komissar boshqarmasidan ushbu organ sifatida harakat qilishni so'radi. 1954-yilgi konvensiyaga muvofiq, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan imzolangan 2006-yildagi 106-sonli BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi xulosasida “ishtirokchi davlatlar konvensiya qoidalarini to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash uchun 1954-yilgi konvensiyani qo'llash bo'yicha texnik maslahatlar berishga” chaqiriladi.

1995-yilda kengash fuqaroligi bo'lmaganlik bo'yicha keng qamrovli ko'rsatmalarni qabul qildi: Fuqarolikka ega emaslikning oldini olish va kamaytirish hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi xulosa (Xulosa N° 78). 1995-yildagi Fuqarolikka ega emaslik bo'yicha BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi xulosasida “BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar nomidan harakat qilishni davom ettirishga chaqiriladi” va “BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi 1954-yildagi konvensiyaga va 1961-yildagi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishda faol ko'maklashish so'raladi”. Ijroiya qo'mitasining xulosasida, shuningdek, BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan “ma'lumot tarqatish, shuningdek, maxsus xodimlar va davlat amaldorlarini tayyorlash orqali fuqarolikka ega emaslikning oldini olish va kamaytirishga faol ko'maklashish hamda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish” so'raladi.

1996-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi A/RES/50/152 raqamli rezolyutsiya qabul qildi. Unda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari fuqaroligi bo'lmagan shaxslar nomidan harakat qilishni davom ettirishga hamda 1954 va 1961-yilgi konvensiyalarga qo'shilish va ularni amalda tatbiq etishda ko'maklashishga chaqiriladi.

Rezolyutsiya, shuningdek, BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasidan “muayyan davlatlar uchun ichki qonunchilikni tayyorlash va qo'llashda tegishli texnik va maslahat xizmatlarini ko'rsatishni” so'raydi.

Xuddi shu rezolyutsiyada Bosh Assambleya: “Davlatlarni xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga muvofiq fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish, xususan, o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan mahrum qilishning oldini olish maqsadida ichki qonunchilikni qabul qilishga, shuningdek, fuqarolikdan o'zboshimchalik bilan mahrum qilishning oldini olishga, fuqarolikdan mahrum bo'lishga imkon beruvchi qoidalarni bekor qilishga chaqiradi. Avvalo boshqa fuqarolikka ega bo'lmasdan yoki fuqarolikka ega bo'lmay turib, fuqarolikdan voz kechish, shu bilan birga, davlatning fuqarolikka ega bo'lish, undan chiqish va uni yo'qotish to'g'risida qonunlar qabul qilish huquqi tan olinishi kerak”.

Fuqarolikka ega emaslik BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2002-yilda ma'qullangan BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan (Xulosa N° 92 [LIII] Kun tartibida ko'chish va qochqinlar oqimining asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etilgan).

Ko'p yillar davomida hal etilmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonining yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada ko'pligidan xavotirlanib, 2004-yilda kengash BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasini ushbu vaziyatlarga yechim topish uchun manfaatdor davlatlar bilan ishlashda faolroq ishtirok etishga chaqirdi. 2006-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi fuqarolikka ega emaslikni aniqlash, oldini olish va kamaytirish hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishni ta'minlash to'g'risidagi Ijroiya qo'mitasining 106-sonli xulosasini imzoladi, bu esa, boshqa omillar qatori, BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlik qilish zarurligini tasdiqlaydi:

- fuqaroligi bo'lmagan aholini, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni aniqlash bo'yicha hukumatlar bilan ishlash;
- fuqarolikka ega emaslikka qarshi choralar ko'rish va ularni amalga oshirish, o'zboshimchalik bilan fuqarolikdan chiqish yoki fuqarolikdan mahrum qilish natijasida yuzaga keladigan fuqarolikka ega emaslikning oldini olish uchun davlatlarga texnik va operatsion yordam ko'rsatish;
- BMTning boshqa agentliklari bilan hamkorlikda davlatlarga fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirishga yordam berish, ayniqsa, uzoq muddatli vaziyatlarda;
- hamkor mamlakatlarning vakolatli mutasaddilarini fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni aniqlash, ro'yxatga olish va ularga tegishli maqom berishning tegishli mexanizmlari bo'yicha o'qitish.

2006-yildan beri BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi faoliyatining to'rt jihati: fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni aniqlash, fuqarolikka ega emaslikning oldini olish va kamaytirish hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

## **Fuqarolikka ega emaslik muammosini hal qilish uchun BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi qanday choralar ko'rmoqda?**

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi davlatlarga ichki qonunchilikni ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam beradi, hukumat amaldorlari uchun treninglar o'tkazadi va aholining katta qismi fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan iborat davlatlarda konstitutsiyaviy fuqarolik huquqi qoidalariga sharhlar taklif qiladi. 2011 va 2012-yillarda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi 71 davlatda fuqarolik huquqini isloh qilish tashabbusi bilan chiqdi va 41 davlatga ushbu masala bo'yicha texnik maslahatlar berdi.

Ushbu xalqaro tashkilot davlatlarning ichki qonunchiligi insonlarning ko'chirilishiga olib kelmasligi hamda fuqarolikka ega emaslikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qoidalarni o'z ichiga olmasligini ta'minlash uchun parlamentlar bilan hamkorlik qiladi. 1951-yildagi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaning 1 – 4-moddalariga muvofiq BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining “Har bir bolaning fuqarolik olish huquqini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar” nomli hujjati mazkur masala bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar beradi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi BMTga a'zo davlatlar tomonidan fuqarolikka ega emaslik darajasini pasaytirish va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish ehtiyojlarini qondirish bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlarga doir birinchi global tadqiqotni boshladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dunyoning hech bir mintaqasi fuqarolikka ega emaslikdan xoli emas, qonunchilik va siyosatda ham xalqaro va ichki miqyosda jiddiy kamchiliklar mavjud.

Qochoqlar bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga o'zlari uzoq vaqt yashab kelgan mamlakat fuqaroligini olishga ruxsat beruvchi fuqarolik kampaniyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki guruhlar bilan bog'liq vaziyatni hal qilish uchun davlatlarga maslahatlar berish orqali fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga bevosita yordam ko'rsatadi. Tashkilot davlatlarni jismoniy shaxsning huquqiy maqomini oydinlashtirishga, shuningdek, agar shaxs/shaxslar guruhi fuqaroligi bo'lmagan holda qoladigan bo'lsa, shaxs yoki shaxslar guruhi va davlatning irsiy aloqalarini tan olishga chaqiradi.

Fuqarolik holati tugagunga qadar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z yashash mamlakatida minimal huquqlardan foydalanishlari kerak. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun minimal huquq va majburiyatlar to'plamini ta'minlovchi 1954-yilgi konvensiyani amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi va zarurat tug'ilganda davlatlarga resurslarni qo'llash va taqdim etishda, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga yordam berish dasturlarini himoya qilish va qo'llashda yordam beradi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilish bo'yicha BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining qo'llanmasida ushbu mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan.

## **Fuqarolikka ega emaslik muammosini hal qilish uchun BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan birgalikda qaysi tashkilotlar faoliyat olib bormoqda?**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Bolalar jamg'armasi (UNICEF) hamda Gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tashkiloti fuqarolikka ega emaslik muammosini bartaraf etishda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlovchi asosiy BMT agentliklari hisoblanadi. Uzoq muddatli fuqarolikka ega emaslik holatlarini hal etishda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Xalqaro Mehnat tashkiloti (XMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) bilan birgalikda marginal ijtimoiy guruhlarning milliy jamiyatga integratsiyalashuvi yoki qayta integratsiyalashuviga yordam berish uchun uy-joy, ta'lim va daromad olish dasturlarini birgalikda qo'llash orqali hamkorlik qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan BMT tuzilmalariga qo'shimcha ravishda, BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fuqarolik huquqini ta'minlaydigan tegishli shartnoma organi mexanizmlari bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi, masalan, Inson huquqlari qo'mitasi, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita, Kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish bo'yicha qo'mita, Irqiy kamsitish, ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha kengash va boshqalar.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Yevropa Kengashi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti, Afrika Ittifoqi, Arab davlatlari ligasi va Islom konferensiyasi tashkiloti kabi mintaqaviy organlar bilan hamkorlik qiladi. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, shuningdek, Yevropa Kengashining Fuqarolik qo'mitasida ishtirok etdi hamda Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini, shuningdek, Davlatlar vorisligi tufayli fuqarolikka ega emaslikni bartaraf etish protokoli loyihasi ishlab chiqdi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ham BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi dasturlari doirasida BMT QOKB bilan yaqindan hamkorlik qiladi va agentlik faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi parlamentariylarning fuqarolik yo'qligi bilan bog'liq xalqaro huquqiy me'yorlar to'g'risida xabardorligini oshirish, shuningdek, ularni fuqarolikka ega emaslikning oldini olish bo'yicha yo'l-yo'riq va ilg'or tajribalar bilan tanishtirish maqsadida Parlamentlararo ittifoq (PI) bilan yaqin hamkorlik qiladi. PI parlament a'zolarini fuqarolikdan mahrum bo'lganlarning

fuqarolik huquqini saqlab qolish orqali fuqarolikka ega emaslikka barham berishga yordam beradigan ichki qonunchilikni qabul qilishga chaqiradi va ikki yoki ko'p fuqarolik bilan bog'liq shartnomalar beixtiyor fuqarolikka ega emaslikka sabab bo'lmasligini ta'minlashga ko'maklashadi.

## Ijoiy tajriba: Shri-Lanka

Mashhur Shri-Lanka choyini ishlab chiqarishga jalb qilingan deyarli barcha ishchi kuchi hindistonlikdir. Ular rasmiy ravishda "Hind tamillari" deb ataladi, lekin ko'proq "Ichki hududlar tamillari" deyiladi. Bu ishchilar 1815 va 1948-yillar orasida orolning Britaniya hukmdorlari tomonidan Hindistondan o'sha paytdagi Seylonga olib kelingan odamlarning avlodlari. 1948-yilda Shri-Lanka mustaqillikka erishganidan keyin, 1984-yilgacha Shri-Lankada qabul qilingan turli shartnomalar bilan bu ishchilarning huquqiy maqomi belgilab berildi. Ba'zi ichki hududlar tamillari qonunchilik yoki ikki tomonlama kelishuvlar orqali ushbu mamlakatlardan birining fuqaroligini olgan. Biroq ularning ko'pchiligi fuqarolikka ega bo'lmagani uchun hech qanday asosiy huquqlarga ega emas edi, ularning ba'zilari hatto Shri-Lanka yoki Hindiston fuqaroligini olish tartibiga kirish imkoniga ega emas edi.

1982-yilda Hindiston hukumati Shri-Lanka hukumatiga ichki qismdagi tamillar bilan bog'liq oldingi kelishuvlar qonuniy kuchga ega emasligi, chunki ularning amal qilish muddati tugaganligi haqida ma'lum qildi. Amalda shu vaqtdan boshlab ichki hududdagi fuqaroligi bo'lmagan tamillar fuqarolikni Shri-Lanka yoki Hindistonda ololmadilar.

Seylon Ishchilar Kongressi kasaba uyushmasi va siyosiy partiyasi ko'p yillar davomida ichki hududlarda tamillarning manfaatlarini himoya qilishga harakat qilmoqda. Bunga javoban Shri-Lanka parlamenti 2003-yil oktabr oyida "Hindiston fuqaroligi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqdi va bir ovozdan ma'qulladi. Ushbu qonun kelib chiqishi hindistonlik har qanday shaxsга avtomatik ravishda fuqarolikni beradi:

- 1964-yil 30-oktabrdan beri Shri-Lankada doimiy rezident hisoblangan shaxslarga;
- Shri-Lanka rezidenti va 1964-yil 30-oktabrdan beri Shri-Lankada doimiy yashovchi shaxsning avlodlariga.

Qonun qabul qilingandan so'ng, Bosh vakil idorasi, BM'Tning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi va Seylon Ishchilar Kongressi ushbu yangi qonun haqida ma'lumot tarqata boshladilar. Tamil, ingliz va sinhala ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etildi, shuningdek, radio va televideniye eshittirish hamda ko'rsatuvlarida yangi qonun haqida, shuningdek, fuqarolar fuqarolikka ega bo'lish uchun qay tartibda va qayerga murojaat qilishlari mumkinligi haqida ma'lumot berildi.

Ichki ishlar vaziri, shuningdek, Migratsiya boshqarmasi boshlig'i tomonidan ishlab chiqilgan ma'muriy tartib-qoidalar juda soddada, ixcham va adolatli. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun ikkita tartib mavjud:

- Hindistonda 1982-yilda mustaqillik deklaratsiyasi e'lon qilinganidan so'ng muddati tugagan Hindiston pasportlari egalari Shri-Lanka fuqaroligini ixtiyoriy ravishda olish istagini bildirishlari kerak. Bu, odatda, oila boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Immigratsiya organlari ushbu xohishni ifodalovchi hujjatni imzolashlari kerak. Tasdiqlangandan so'ng, barcha oila a'zolariga fuqarolik beriladi.
- Hujjatsiz shaxslardan yozma ariza topshirish talab etilmaydi, biroq ular hukumat tomonidan imzolangan taqdirda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni olish jarayonini osonlashtiradigan maxsus deklaratsiyani imzolashga da'vat etiladi.

Ikkala jarayon ham bepul va ariza topshirish muddati mavjud emas. 2003-yilning dekabr oyida BM'Tning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi va Seylon Ishchilar Kongressi 500 dan ortiq ko'ngillilar uchun bir kunlik trening o'tkazdi, mashg'ulot ishtirokchilari keyinchalik fuqaroligi bo'lmagan shaxslar murojaat qilishlari uchun mo'ljallangan choy plantatsiyalari hududidagi 50 ta mobil markazlarda ishladilar.

Ko'ngillarga fuqarolikka ega emaslikning asosiy sabablari, 1948-yildan keyin qabul qilingan turli qonunlar, shuningdek, yangi qonunlar va tanlov mezonlari haqida ma'lumot berildi.

2003-yilning dekabr oyida 10 kun davomida mobil markazlar xodimlari fuqarolik uchun arizalarni qabul qildilar. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi ushbu kampaniyani moliyalashtirdi, shuningdek, barcha ma'lumotlar arizachilarga taqdim etilishini va arizachilarning ixtiyoriy asosga ega bo'lishini ta'minlash uchun jarayonni nazorat qildi. Oy oxiriga kelib, 190 mingga yaqin oila a'zolari Shri-Lanka fuqaroligini oldi.

2004-yilning iyul va avgust oylarida mamlakat shimoli-sharqida ikkinchi kichikroq kampaniya tashkil etildi. Unda 2000 dan ortiq fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolik so'rab murojaat qildi va mamlakat fuqaroligiga qabul qilindi. O'shandan beri oz sonli ichki hudud tamillari o'zlarining yashash joylaridagi hukumat vakillari orqali yoki poytaxt Kolombo shahridagi Jamoat xavfsizligi, qonun va tartib vazirligining fuqarolik bo'limi orqali fuqarolikka muvaffaqiyatli qabul qilinishmoqda.

## **BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi faoliyatiga kim homiylik qiladi?**

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun deyarli butunlay ixtiyoriy xayriyalarga bog'liq bo'lgan BMTning kam sonli tashkilotlaridan biridir. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi yillik budgetining taxminan 5 foizi BMT umumiy budgetiga ajratmalar hisobidan, qolgan qismi hukumatlar, jismoniy shaxslar va xususiy sektorning ixtiyoriy badallariga asoslanadi.

2013-yil avvalida tashkilot 35,8 million kishiga yordam ko'rsatdi. 2012-yil uchun BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi budgeti 4,3 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 62 million dollar mablag' fuqarolikka ega emaslik bilan bog'liq faoliyatga yo'naltirildi.

2012-yilda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi o'z mablag'larining 77 foizini o'nta davlat manbalaridan oldi. Shu bilan birga, xususiy sektordan, asosan, Yevropa, Avstraliya, Yaponiya, Qatar va Amerika Qo'shma Shtatlaridan 130 million dollardan ortiq mablag' kelib tushdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari ham BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining yillik budgetiga uning nomidan jamoatchilik murojaatlarini amalga oshirish orqali hissa qo'shadi. So'nggi yillarda televideniye va radio, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali aholining xabardorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan hamkorlikdagi amaliy chora-tadbirlar natijasida xususiy sektor va nodavlat notijorat tashkilotlarining xayriyalari ko'payishiga erishildi.

# Parlament a'zolari qanday yordam berishi mumkin?



2008-yildagi Oliy sud qaroriga ko'ra, Bangladeshdagi urdu tilida so'zlashuvchilar, shu jumladan, Dakkaning Muhammadpur tumanidagi bu bolalar Bangladesh fuqarolari ekanligi tasdiqlandi. Sud Bangladesh hukumatiga urdu tilida so'zlashuvchilarning huquqlarini tiklashni, ularga shaxsiy guvohnomalar berishni va saylovchilar sifatida ro'yxatga olishni tavsiya qildi. © BMT QOKB / S.L. Husayn, 2013-yil

Parlament a'zolari fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirishga yordam berish hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning xalqaro huquqda belgilangan huquq va majburiyatlardan foydalanishini ta'minlashda o'ziga xos mavqega ega. Ular buni quyidagilar orqali amalga oshirishlari mumkin:

- ▶ ichki fuqarolik qonunchiligini qayta ko'rib chiqish va uning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash;
- ▶ 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalarga qo'shilishni qo'llab-quvvatlash;
- ▶ shaxslarning fuqaroligi bo'lmagan holatlarni kamaytirish yoki bunday holatlarga butunlay barham berishga chaqirish, shuningdek, fuqarolikka ega emaslik holatlarini hal qilish.

Parlament a'zolari fuqarolik mavjud emasligiga oid ichki qonunchilikni ko'rib chiqishda nimalarga e'tibor berishlari kerak?

- Birinchidan, davlat a'zo bo'lgan tegishli xalqaro yoki mintaqaviy shartnomalarni ko'rib chiqish. Davlat ichki qonunchiligida nazarda tutilgan shartnomalar, konvensiyalar va deklaratsiyalarni qayta ko'rib chiqing, bu ichki huquq tizimini talqin qilishda yordam beradi.
- Ikkinchidan, ko'pgina davlatlar fuqarolik bilan bog'liq qoidalarni turli huquqiy hujjatlarga kiritganligi sababli konstitutsiya, fuqarolik to'g'risidagi qonunlar, farmonlar, shuningdek, davlat qonunlariga aniqlik kiritishi mumkin bo'lgan ichki huquqning barcha manbalari qayta ko'rib chiqilishi kerak.
- Uchinchidan, davlat vorisligi bo'yicha qabul qilingan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar qayta ko'rib chiqilishi kerak.
- To'rtinchidan, milliy huquqiy tizimni ko'rib chiqishda davlat fuqarolikdan mahrum qilish, fuqarolikdan chiqish va fuqarolikni yo'qotish natijasida fuqarolik yo'qligining oldini olish uchun kafolatlarni joriy etish va tizimli ravishda qo'llash choralarini ko'rayotganini aniqlash kerak.

Mahalliy huquq tizimini qayta ko'rib chiqishda quyidagi savollarga javob berish kerak:

### Fuqarolikni qabul qilish to'g'risida

- Agar ota fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblansa yoki fuqaroligini farzandiga o'tkazish imkoniga ega bo'lmasa yoxud ota kimligi noma'lum bo'sa, farzandlar onasining fuqaroligini olishi mumkinmi?
- Agar ota va ona fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblansa ham, farzand o'zi tug'ilgan davlat fuqaroligini olishi davlatning ichki qonunchiligida nazarda tutilganmi?
- Qonunlarda kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyili qo'llaniladimi?
- Agar davlatda vorislik yo'li bilan fuqarolikni berish tartibi mavjud bo'sa, fuqarolikni berish yoki bu borada qaror qabul qilishda quyidagi faktlar e'tiborga olinadimi: shaxsning vorislik davrida mamlakat hududida yashash joyi, tanlash huquqi, hududiy kelib chiqishi?

### Fuqarolikni yo'qotish va fuqarolikdan mahrum qilish to'g'risida

- Fuqarolik holati yoki boshqa ijtimoiy maqom o'zgargandan keyin fuqarolikni o'zgartirish to'g'risidagi mavjud tartib-qoidalar fuqarolikka ega emaslikning oldini olish choralarini ko'radimi?
- Fuqarolik qanday yo'qoladi? Fuqarolikka ega emaslikning oldi olinadimi?
- Fuqarolikdan chiqish boshqa fuqarolikni qabul qilgunga qadar shartlimi yoki boshqa fuqarolikka ega bo'lish kafolati bormi?
- Boshqa davlatda fuqarolikka qabul qilish uchun ariza berish, agar shaxs boshqa davlat fuqaroligini olish kafolatlarini olmagan bo'lsa, uning fuqarolik holatini o'zgartiradimi?
- Fuqarolikdan mahrum etish nazarda tutilgan hollarda, buning asoslari aniq belgilanganmi? Fuqarolikdan mahrum qilish fuqarolikka ega emaslikka olib kelishi mumkinmi? Protsessual kafolatlar bormi?

## Fuqarolikni tiklash to'g'risida

- Qonuniy ravishda davlat hududida yashovchi sobiq fuqarolar uchun fuqarolikni tiklash tartibi soddalashtirilganmi?
- Fuqarolik holati yoki boshqa maqomi o'zgarganligi sababli uni yo'qotgan shaxsning avvalgi fuqaroligi tiklanishi mumkinmi? Mumkin bo'lsa, bu avtomatik ravishda amalga oshiriladimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs buning uchun ariza berishi kerakmi? Protsessual kafolatlar bormi?

## Naturalizatsiya bo'yicha

- Agar xorijlik shaxs fuqarolikni olish uchun ariza topshirsa, u avvalgi fuqaroligidan rasman voz kechishi kerakmi? Yangi fuqarolikni olishda oldingi fuqarolikni yo'qotish kafolati bu holatda yetarli bo'ladimi?
- Fuqarolikka qabul qilish jarayoni va talablar aniq belgilanganmi?
- Uzoq jarayonlar, keraksiz yuqori to'lovlar, ariza beruvchi taqdim eta olmaydigan hujjat talablari va/yoki fuqarolik yo'qligiga olib kelishi mumkin bo'lgan oraliq muddatlar kabi ma'muriy amaliyotlar mavjudmi?

## Shaxsni va fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlarni olish to'g'risida

- Tug'ilganlikni qayd etishning ma'muriy tartiblari qanday? Ular amalda qo'llaniladimi? Tug'ilganlikni ro'yxatga olish muddati bormi, keyinroq ro'yxatga olish mumkinmi?
- Fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlarni olishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan uzoq jarayonlar, asossiz yuqori yig'imlar, ariza beruvchi taqdim eta olmaydigan hujjat talablari va/yoki qisqa muddatlar kabi ma'muriy amaliyotlar mavjudmi?

## Nima uchun davlatlar 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalarga a'zo bo'lishlari kerak?

Milliy darajada 1954 va 1961-yillardagi fuqarolikka ega emaslikka doir konvensiyalarga a'zo bo'lish:

- bu fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga xalqaro miqyosda tan olingan insonparvarlik va inson huquqlari standartlariga, shu jumladan fuqarolik huquqiga muvofiq munosabatda bo'lishdan manfaatdorlik ko'rsatish usuli sanaladi;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning davlat tomonidan taqdim etiladigan himoya, shuningdek, xavfsizlik va qadr-qimmatdan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi;
- davlatlar hududida fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni aniqlash, shuningdek, ularning huquqlarini shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va sayohat hujjatlarini berish orqali ta'minlash uchun asos yaratadi;
- davlatlarning fuqarolikka oid qonunlarni tartibga solish huquqiga ziyon yetkazmagan holda, fuqarolikka ega emaslikning oldini olish uchun umumiy kafolatlarni tan olish orqali dunyo bo'ylab fuqarolikka turlicha yondashuvlar natijasida yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning chetlatilishi va ijtimoiy cheklanishiga yo'l qo'ymaslik orqali xavfsizlik va barqarorlikni oshiradi.

## **Xalqaro darajada 1954 va 1961-yillardagi fuqarolikka ega emaslikka doir konvensiyalarga a'zo bo'lish:**

- davlatning fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish va bartaraf etish uchun xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilishdan manfaatdorligini namoyon etadi;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning xalqaro-huquqiy maqomini, shuningdek, umumiy xalqaro himoya tizimini tan olishga ko'maklashadi, shu orqali davlatlarning fuqarolikka ega emaslik holatlariga munosabati shaffofligini oshiradi;
- xalqaro munosabatlar va barqarorlikni yaxshilaydi;
- fuqarolikka ega emaslikning sabablarini bartaraf etish orqali ko'chishning oldini olishga yordam beradi;
- konvensiyalarda bayon etilgan tamoyillarni amalga oshirishda xalqaro yordamni kuchaytirish borasida BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasiga yordam beradi;
- fuqarolik bilan bog'liq nizolarni hal etishga ko'maklashadi.

## **Davlatlar mazkur konvensiyalarga qanday a'zo bo'ladi?**

Davlatlar 1954-yilgi konvensiyaga va/yoki 1961-yilgi konvensiyaga istalgan vaqtda BMT Bosh kotibiga a'zo bo'lish uchun namunaviy hujjat taqdim etish orqali qo'shilishlari mumkin. A'zo bo'lish to'g'risidagi hujjat davlat rahbari yoki hukumat rahbari yoxud tashqi ishlar vaziri tomonidan imzolanishi, so'ngra davlat vakili orqali BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasiga yuborilishi kerak (A'zo bo'lish uchun taqdim etiladigan hujjatlar namunalari 3-ildovada keltirilgan).


## **Davlat konvensiyaga izohlar taklif qilishi mumkinmi?**

Ratifikatsiya yoki a'zo bo'lish vaqtida alohida davlatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan maxsus shartlarni e'tirof etgan holda, konvensiyalar ishtirokchi-davlatlarga dastlabki ishtirokchi-davlatlar tomonidan asosiy deb hisoblangan qoidalardan tashqari konvensiyalarning ayrim qoidalariga izohlar taklif qilish imkonini beradi:

- 1954-yilgi konvensiya: 1-modda (ta'rif / istisnolar), 3-modda (kamsitmaslik), 4-modda (diniy e'tiqod erkinligi), 16 (1)-modda (sudlarga kirish) va 33 – 42-moddalardan (yakuniy bandlar) tashqari qolgan moddalarga izoh kiritishga ruxsat berilgan.
- 1961-yilgi konvensiya: 11-modda (agentlik), 14-modda (nizolarni Xalqaro sudga ko'rib chiqish) hamda 15-moddagagina (ishtirokchi-davlatlar mas'ul bo'lgan hududlar) izoh taklif qilish mumkin.


## 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalarga a'zo davlatlar

2014-yilning 1-may holatiga ko'ra



- Konvensiyalarga hali qo'shilmagan davlatlar
- Faqat 1954-yildagi konvensiyaga a'zo davlatlar
- Faqat 1961-yildagi konvensiyaga a'zo davlatlar
- 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalarga qo'shilgan davlatlar

## 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalarga a'zo davlatlar sonining o'sishi



## Parlament a'zolari konvensiya qoidalarining samarali qo'llanilishini qanday ta'minlaydi?

Davlatlarning milliy qonunchiligi fuqarolikka ega emaslik to'g'risidagi konvensiyalar qoidalarini samarali qo'llash imkonini beradigan tarzda qabul qilinishi kerak. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi davlatlarning huquqiy qadriyatleri va asoslari xalqaro majburiyatlarni bajarishga muvofiqligini ta'minlash uchun ularga foydali maslahatlar beradi.

## Parlament a'zolari o'z davlatlarini konvensiyalarga qo'shilishga undash uchun qanday choralar ko'rishlari mumkin?

- Davlat konvensiyalardan birining yoki ikkalasining ham ishtirokchisi ekanligini aniqlash.
- Agar davlat ushbu hujjatlarni hali imzolamagan bo'lsa, hukumatga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qiling yoki shaxsiy qonun loyihasini taqdim eting.
- Agar ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi masala parlamentga qo'yilgan bo'lsa, zarur ma'lumotlarni ko'rib chiqqandan so'ng, a'zo bo'lish masalasi bo'yicha ovoz berish.
- Hukumat masalani ma'lum muddat ichida parlamentga olib chiqolmasa, parlamentdan tushuntirish so'rash va kechiktirmasdan ratifikatsiya/qo'shilish jarayonini boshlashga chaqirish kerak.
- Agar davlat ikkala konvensiyaga qo'shilgan, lekin ratifikatsiya jarayonini kechiktirgan kam sonli davlatlardan biri bo'lsa, kechikish sabablarini aniqlash uchun parlament protseduralaridan foydalanish va parlament a'zolarini uni tezlashtirishga undash kerak. Ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilish uchun siz qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishingiz mumkin.
- Agar hukumat ratifikatsiya/qo'shilishga qarshi bo'lsa, buning sababini batafsil o'rganish kerak. Agar kerak bo'lsa, buning uchun barcha mavjud siyosiy tizimdan foydalangan holda shubha va tushunmovchiliklarga barham berish lozim. Ratifikatsiya/qo'shilish tarafdori bo'lish va bunga to'sqinlik qilayotgan sabablarni bartaraf etish zarur.
- Agar siz boshqa davlatning tarqalishi yoki bo'linishi natijasida tuzilgan davlatning parlamentariysi bo'lsangiz, avvalgi davlat ishtirokchi bo'lgan shartnomalar merosxo'r davlat uchun avtomatik ravishda majburiy bo'lmaydi. Bunday davlatlar ushbu majburiyatlarga yangi davlatlar sifatida qo'shilishlari yoki oldingi davlat tomonidan tuzilgan shartnomalarga a'zo bo'lmasilklarini bildirishlari mumkin.
- Fuqarolikka ega emaslik to'g'risidagi konvensiyalarni ratifikatsiya qilish/qo'shilishdan so'ng, parlament konvensiya qoidalariga muvofiq ichki qonunlarni qabul qilish choralarini ko'rish kerak. Qonun hujjatlari ma'lum vaqt ichida yaratilishi yoki o'zgartirilishini ta'minlash uchun parlament protseduralaridan foydalanish zarur.
- Agar hukumat parlamentga ratifikatsiya/qo'shilish to'g'risidagi so'rovni shartnomani qo'llash bo'yicha cheklovlar, e'tirozlar yoki anglashuv deklaratsiyalari bilan birga jo'natgan bo'lsa va bu parlament a'zolarining fikricha, asossiz bo'lsa, unda parlament shartli manfaatlardan ustun bo'lgan umumiy manfaatni ifodalashi kerak.
- Agar shartnomani qo'llash bo'yicha hukumat tomonidan bildirilgan cheklovlar, e'tirozlar yoki tushunish to'g'risidagi deklaratsiyalar muddati tugagan bo'lsa, hukumatning xohishini so'rash uchun parlament tartib-qoidalaridan foydalanish, shuningdek, har qanday cheklovlarni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.
- Agar sizga ratifikatsiya/qo'shilish va/yoki fuqaroligi bo'lmaganlar to'g'risidagi konvensiya tamoyillariga mos keladigan ichki qonunchilik loyihasini ishlab chiqish bo'yicha maslahat kerak bo'lsa, siz o'z mamlakatingizdagi BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasiga yoki unga qarashli idoraga murojaat qilishingiz mumkin.

## **Parlament a'zolari fuqarolikka ega emaslik bo'yicha xabardorlikni qanday oshirishlari mumkin?**

Milliy qonunchilikni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan parlament a'zolari fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish yoki yo'q qilish, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni himoya qilishni ta'minlash uchun yetarli vakolatga ega. Parlament a'zolari nafaqat o'z davlatlarini xalqaro standartlarga muvofiq qonunlar qabul qilishga chaqirishlari, balki saylovchilarning qo'llab-quvvatlashiga ham erishishlari kerak. Jamiyat fuqarolikka ega emaslik muammosini to'liq anglab yetgan taqdirdagina uni hal qilish bo'yicha parlament a'zolarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Parlament a'zolari fuqarolikka ega emaslikka barham berish zarurligi to'g'risida gazetalarda maqolalar e'lon qilish, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga yordam ko'rsatadigan nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati tuzilmalari bilan hamkorlik qilish orqali yuqoridagi muammo borasida, shuningdek, uni hal etishda mustahkam qonunchilikning ahamiyati haqida fikr bildirib, aholi o'rtasida xabardorlikni oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan fuqarolikka ega emaslik bilan bog'liq mavjud muammolarni tezkor hal etishni targ'ib qilishlari kerak.

Parlament a'zolari ozchiliklar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, boshqa guruhlarni davlat aholisining bir qismi bo'lishga undash orqali fuqarolikka ega emaslik muammosini hal etishlari mumkin. Buni jamiyatlarda o'rtasidagi muloqotni kuchaytirish orqali ham hal qilish mumkin, bu esa fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni fuqaro sifatida qabul qilishga olib keladi.

## **Parlament a'zolari bu masalada xalqaro hamkorlikka chaqirish uchun nima qilishi mumkin?**

Butun dunyoda fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirish uchun xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Parlament a'zolari o'z davlatlarining fuqarolikka ega emaslikni kamaytirish yoki yo'q qilish bo'yicha barcha xalqaro sa'y-harakatlarda to'liq ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek, fuqarolikka ega emaslikning mavjud individual holatlarini hal qilish uchun choralar ko'rishlari kerak.

Parlament a'zolari o'zlarining fuqarolik qonunchiligini mintaqaviy ko'rib chiqish uchun qo'shni davlatlar parlamentlarini ham taklif qilishlari mumkin. Davlatlar o'rtasida fuqarolik qonunlarini uyg'unlashtirish fuqarolikka ega emaslik holatlarini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi.

# 1-ilova

## 1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar

**Konvensiyaning kuchga kirish sanasi:** 1960-yil 6-iyun

**Istirokchi-davlatlarning umumiy soni (2014-yil 1-may holatiga ko'ra):** 80 ta

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Albaniya		2003-yil 23-iyun (Q)
Aljir		1964-yil 15-iyul (Q)
Antigua va Barbuda		1988-yil 25-oktyabr (DHV)
Argentina		1972-yil 1-iyun (Q)
Armaniston		1994-yil 18-May (Q)
Avstraliya		1973-yil 13-dekabr (Q)
Avstriya		2008-yil 8-fevral (Q)
Ozarbayjon		1996-yil 16-avgust (Q)
Barbados		1972-yil 6-mart (DHV)
Belgiya	1954-yil 28-sentabr	1960-yil 27-may (R)
Beliz		2006-yil 14-sentabr (Q)
Benin		2011-yil 8-dekabr (Q)
Boliviya		1983-yil 6-oktabr (Q)
Bosniya va Gersegovina		1993-yil 1-sentabr (DHV)
Botsvana		1969-yil 25-fevral (DHV)
Braziliya	1954-yil 28-sentabr	1996-yil 13-avgust (R)
Bolgariya		2012-yil 22-mart (Q)
Burkina Faso		2012-yil 1-may (Q)
Chad		1990-yil 12-avgust (Q)
Xitoy (Gonkong bilan birga)*		
Kosta-Rika	1954-yil 28-sentabr	1977-yil 2-noyabr (R)
Kot d'lvar		2013-yil 3-oktabr (Q)
Xorvatiya		1992-yil 12-oktabr (DHV)

\* Gonkong ustidan hokimiyatni amalga oshirish qayta tiklanganidan so'ng, Xitoy BMT Bosh kotibini ushbu konvensiya qoidalariga taalluqli Gonkongning xalqaro huquq va majburiyatlari uchun javobgarlik Xitoy Xalq Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshirilishi haqida xabardor qildi.

## 1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar (davomi)

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Chexiya		2004-yil 19-iyul (Q)
Daniya	1954-yil 28-sentabr	1956-yil 17-yanvar (R)
Ekvador	1954-yil 28-sentabr	1970-yil 2-oktabr (R)
Fiji		1972-yil 12-iyun (DHV)
Finlyandiya		1968-yil 10-oktabr (Q)
Fransiya	1955-yil 12-yanvar	1960-yil 8-mart (R)
Gruziya		2011-yil 23-dekabr (Q)
Germaniya	1954-yil 28-sentabr	1976-yil 26-oktabr (R)
Gretsiya		1975-yil 4-noyabr (Q)
Gvatemala	1954-yil 28-sentabr	2000-yil 28-noyabr (R)
Gvineya		1962-yil 21-mart (Q)
Gonduras	1954-yil 28-sentabr	2012-yil 1-oktabr (R)
Vengriya		2001-yil 21-noyabr (Q)
Irlandiya		1962-yil 17-dekabr (Q)
Isroil	1954-yil 1-oktabr	1958-yil 23-dekabr
Italiya	1954-yil 20-oktabr	1962-yil 3-dekabr
Kiribati		1983-yil 29-noyabr (DHV)
Koreya Respublikasi		1962-yil 22-avgust (Q)
Latviya		1999-yil 5-noyabr (Q)
Lesoto		1974-yil 4-noyabr (DHV)
Liberiya		1964-yil 11-sentabr (Q)
Liviya		1989-yil 16-may (Q)
Lixtenshteyn	1954-yil 28-sentabr	2009-yil 25-sentabr (R)
Litva		2000-yil 7-fevral (Q)
Lyuksemburg	1955-yil 28-oktabr	1960-yil 27-iyun (R)
Makedoniya		1994-yil 18-yanvar (DHV)
Malavi		2009-yil 7-oktabr (Q)
Meksika		2000-yil 7-iyun (Q)
Moldova Respublikasi		2012-yil 19-aprel (Q)

## 1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar (davomi)

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Chernogoriya		2006-yil 23-oktabr (DHV)
Niderlandiya	1954-yil 28-sentabr	1962-yil 12-aprel (R)
Nikaragua		2013-yil 15-iyul (Q)
Nigeriya		2011-yil 20-sentabr (Q)
Norvegiya	1954-yil 28-sentabr	1956-yil 19-noyabr(R)
Panama		2011-yil 2-iyun (Q)
Peru		2014-yil 23-yanvar (Q)
Filippin	1955-yil 22-iyun	2011-yil 22-sentabr (R)
Portugaliya		2012-yil 1-oktabr (Q)
Ruminiya		2006-yil 27-yanvar (Q)
Ruanda		2006-yil 4-oktabr (Q)
Senegal		2005-yil 21-sentabr (Q)
Serbiya		2001-yil 12-mart (DHV)
Slovakiya		2000-yil 3-aprel (Q)
Sloveniya		1992-yil 6-iyul (DHV)
Ispaniya		1997-yil 12-may (Q)
Sent-Vinsent va Grenadina		1999-yil 27-aprel (DHV)
Esvatini		1999-yil 16-noyabr (Q)
Shvetsiya	1954-yil 28-sentabr	1965-yil 2-aprel (R)
Shveysariya	1954-yil 28-sentabr	1972-yil 3-iyul (R)
Trinidad va Tobago		1966-yil 11-aprel (Q)
Tunis		1969-yil 29-iyul (Q)
Turkmaniston		2011-yil 7-dekabr (Q)
Uganda		1965-yil 15-aprel (Q)
Ukraina		2013-yil 25-mart (Q)
Birlashgan Qirollik	1954-yil 28-sentabr	1959-yil 16-aprel (R)
Urugvay		2004-yil 2-aprel (Q)
Zambiya		1974-yil 1-noyabr (DHV)
Zimbabve		1998-yil 1-dekabr (DHV)

## 1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyani imzolagan, ammo ratifikatsiya qilmagan davlatlar

Davlat	Imzolangan sana
Kolumbiya	1954-yil 30-dekabr
Salvador	1954-yil 28-sentabr
Vatikan	1954-yil 28-sentabr

# 2-ilova

## 1961-yilda qabul qilingan Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar

**Kuchga kirish sanasi:** 1975-yil 13-dekabr

**Ishtirokchi-davlatlarning umumiy soni (2014-yil 1-may holatiga ko'ra):** 55 ta

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Albaniya		2003-yil 9-iyul (Q)
Armaniston		1994-yil 18-may (Q)
Avstraliya		1973-yil 13-dekabr (Q)
Avstriya		1972-yil 22-sentabr (Q)
Ozarbayjon		1996-yil 16-avgust (Q)
Benin		2011-yil 8-dekabr (Q)
Boliviya		1983-yil 6-oktabr (Q)
Bosniya va Gersegovina		1996-yil 13-dekabr (Q)
Braziliya		2007-yil 25-oktabr (Q)
Bolgariya		2012-yil 22-mart (Q)
Kanada		1978-yil 17-iyul (Q)
Chad		1999-yil 12-avgust (Q)
Kosta-Rika		1977-yil 2-noyabr (Q)
Kot d'lvar		2012-yil 3-oktabr (Q)
Xorvatiya		2011-yil 22-sentabr (Q)
Chexiya		2001-yil 19-dekabr (Q)
Daniya		1977-yil 11-iyul (Q)
Ekvador		2012-yil 24-sentabr (Q)
Finlyandiya		2008-yil 7-avgust (Q)
Germaniya		1977-yil 31-avgust (Q)
Gvatemala		2001-yil 19-iyul (Q)
Gonduras		2012-yil 18-dekabr (Q)
Vengriya		2009-yil 12-may (Q)

## 1961-yildagi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar (davomi)

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Irlandiya		1973-yil 18-yanvar (Q)
Yamayka		2013-yil 9-yanvar (Q)
Kiribati		1983-yil 29-noyabr (DHV)
Latviya		1992-yil 14-aprel (Q)
Lesoto		2004-yil 24-sentabr (Q)
Liberiya		2004-yil 22-sentabr (Q)
Liviya		1989-yil 16-may (Q)
Lixtenshteyn		2009-yil 25-sentabr (Q)
Litva		2013-yil 22-iyul (Q)
Moldova Respublikasi		2012-yil 19-aprel (Q)
Chernogoriya		2013-yil 5-dekabr (Q)
Niderlandiya	1961-yil 30-avgust	1985-yil 13-may (R)
Yangi Zelandiya		2006-yil 20-sentabr (Q)
Nikaragua		2013-yil 29-iyul (Q)
Niger		1985-yil 17-iyun (Q)
Nigeriya		2011-yil 20-sentabr (Q)
Norvegiya		1971-yil 11-avgust (Q)
Panama		2011-yil 2-iyun (Q)
Paragvay		2012-yil 6-iyun (Q)
Portugaliya		2012-yil 1-oktabr (Q)
Ruminiya		2006-yil 27-yanvar (Q)
Ruanda		2006-yil 4-oktabr (Q)
Senegal		2005-yil 21-sentabr (Q)
Serbiya		2011-yil 7-dekabr (Q)
Slovakiya		2000-yil 3-aprel (Q)
Esvatini		1999-yil 16-noyabr (Q)

## 1961-yildagi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar (davomi)

Davlat	Imzolangan sana	Ratifikatsiya (R), Qo'shilish (Q), Davlatning huquqiy vorisligi (DHV)
Shvetsiya		1969-yil 19-fevral (Q)
Tunis		2000-yil 12-may (Q)
Turkmaniston		2012-yil 29-avgust (Q)
Ukraina		2013-yil 25-mart (Q)
Birlashgan Qirollik	1961-yil 30-avgust	1966-yil 29-mart (R)
Urugvay		2001-yil 21-sentabr (Q)

## 1961-yildagi Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyani imzolagan, lekin ratifikatsiya qilmagan davlatlar

Davlat	Imzolangan sana
Dominikan Respublikasi	1961-yil 5-dekabr
Fransiya	1962-yil 31-may
Isroil	1961-yil 30-avgust

# 3-ilova

## 1954-yilda qabul qilingan Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaga a'zo bo'lish uchun taqdim etiladigan hujjat namunasi

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiya bir ming to'qqiz yuz ellik to'rtinchi yil yigirma sakkizinchi sentabrda Vakolatli konferensiya tomonidan qabul qilinganligi va u tegishli ravishda 35-moddaga ko'ra a'zo bo'lish uchun ochiq ekanligiga muvofiq;

va yuqorida qayd etilgan 35-moddaning 4-bandida qayd etilganidek, konvensiyaga a'zo bo'lish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga hujjat taqdim etish orqali amalga oshirilishiga binoan;

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyida imzo chekkan [davlat rahbari, hukumat rahbari yoki tashqi ishlar vaziri] [davlat nomi] ushbu hujjatga qo'shilganligini ma'lum qiladi;

Mazkur hujjat o'z qo'lim bilan 20\_\_ yil [kun, oy] da imzolandi.

[Davlat tashkiloti muhri  
va zarur bo'lsa, vakolatli  
shaxs imzosi]

[Davlat rahbari,  
hukumat rahbari yoki  
tashqi ishlar vaziri imzosi]

## 1961-yilda qabul qilingan Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo bo'lish uchun taqdim etiladigan hujjat namunasi

Fuqarolikka ega emaslikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiya bir ming to'qqiz yuz oltmish birinchi yil o'ttizinchi avgust kuni Vakolatli konferensiya tomonidan qabul qilinganligi va u tegishli ravishda 16-moddaga ko'ra a'zo bo'lish uchun ochiq ekanligiga muvofiq;

va yuqorida qayd etilgan 16-moddaning 4-bandida qayd etilganidek, konvensiyaga a'zo bo'lish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga hujjat taqdim etish orqali amalga oshirilishiga binoan;

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyida imzo chekkan [davlat rahbari, hukumat rahbari yoki tashqi ishlar vaziri] [davlat nomi] ushbu hujjatga qo'shilganligini ma'lum qiladi;

Mazkur hujjat o'z qo'lim bilan 20\_\_ yil [kun, oy] da imzolandi.

[Davlat tashkiloti muhri  
va zarur bo'lsa, vakolatli  
shaxs imzosi]

[Davlat rahbari,  
hukumat rahbari yoki  
tashqi ishlar vaziri imzosi]

# Parlamentlararo Ittifoq hamda BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi haqida qisqa ma'lumot

## Parlamentlararo Ittifoq (PI)

Parlamentlararo Ittifoq milliy parlamentlarning global tashkilotidir. Biz siyosiy muloqot va aniq harakatlar orqali tinchlikni saqlash va ijobiy demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilmoqdamiz. Milliy parlamentlarni birlashtirgan yagona xalqaro tashkilot sifatida biz parlamentdagi noyob ishtirokimiz orqali demokratiya va tinchlikni targ'ib qilamiz.

Parlamentlarning o'z demokratik vakolatlarini vakillik, oshkoralik, mas'uliyat va samaradorlik orqali namoyon etish salohiyatini kuchaytirish borasidagi faoliyatimiz gender tengligi, inson huquqlari, taraqqiyot, tinchlik va xalqaro xavfsizlikning asosini tashkil etadi.

Biz tez-tez hamkorlarimiz, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan idoralari bilan hamkorlikda parlamentlarning milliy darajada hal etilishi zarur bo'lgan masalalar bo'yicha dolzarb va amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlaymiz.

Dunyo bo'ylab doimiy o'zgarib turadigan 47 000 parlament a'zolari hamjamiyatiga murojaat qilish – siyosat va qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor qilishga aloqador har qanday harakatning kalitidir.

Parlamentlararo Ittifoq mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilot bo'lib, asosan uning a'zolari tomonidan homiylik qilinadi. Unga 1989-yilda asos solingan. Tashkil etilgan paytdan beri 164 ta milliy parlamentni, shuningdek, 2014-yilda 10 ta mintaqaviy parlament organini assotsiatsiyalangan a'zo sifatida o'z ichiga olgan Parlamentlararo Ittifoq hali ham demokratiyaga bo'lgan global talabni aks ettirish uchun kengayib bormoqda.

## **BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi**

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi qochqinlarni himoya qilish va butun dunyo bo'ylab qochoqlar muammosini hal etish bo'yicha xalqaro harakatlarga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish vakolatiga ega. Ushbu tashkilot har bir inson boshqa davlatdan boshpana izlash va olish yoki o'z vataniga ixtiyoriy ravishda qaytish huquqidan foydalanishini ta'minlash uchun choralar ko'rishga intiladi. Qochqinlarga o'z vataniga qaytishda yoki boshqa davlatga joylashishda yordam berish orqali BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi ularning muammoli vaziyatiga uzoq muddatli yechim topishga intiladi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Ijroiya qo'mitasi hamda BMT Bosh Assambleyasi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, shuningdek, ichki ko'chirilganlarga yordam ko'rsatish vazifasini BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari zimmasiga yukladi.

BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi davlatlar va tashkilotlarni inson huquqlarini himoya qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun qulay muhit yaratishga chaqirish orqali ichki ko'chishlarni kamaytirish choralarini ko'radi.

Tashkilot qochqinlar va boshqalarni irqi, tana rangi, dini, siyosiy mansubligi yoki jinsiga qarab kamsitmasdan, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda adolatli tarzda himoya va yordam ko'rsatadi. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi ishtirok etish tamoyiliga sodiqdir va qochqinlarga ularning hayotiga taalluqli barcha masalalar bo'yicha maslahatlar beradi. Boshqarma hukumatlar, mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro va nodavlat tuzilmalar bilan hamkorlikda ishlaydi.

© Parlamentlararo Ittifoq, 2014-yil

Parlamentlararo Ittifoq tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlikda nashr etildi.

Barcha huquqlar himoyalangan. Ushbu hujjatning hech bir qismini Parlamentlararo Ittifoq yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi ruxsatisiz qayta nashr etish, avtomatik qidirish tizimida saqlash yoki elektron, mexanik, nusxa ko'chirish, yozib olish yoxud boshqa vositalar bilan uzatish mumkin emas.

Ushbu nashr nashriyotning oldindan berilgan roziligisiz qarzga berilmasligi, sotilmasligi yoki o'zi asl chop etilgan jildda va muqovadan farqli o'laroq boshqa har qanday jildda va muqovada tarqatilmaligi sharti bilan tarqatiladi. Yuqorida qayd etilgan shartlar har qanday keyingi noshirning zimmasiga yuklanadi.

Fuqarolik va fuqarolikka ega emaslik: parlament a'zolari uchun qo'llanma // akademik A.X. Saidovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2022. – 68 bet.

Ushbu nashr BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekistondagi vakolatxonasi buyurtmasiga binoan tarjimon Nizam Yuldashbayev tomonidan amalga oshirilgan norasmiy tarjima hisoblanadi. Parlamentlararo ittifoq tarjima natijasida hosil bo'lgan har qanday xato yoki noto'g'ri talqin uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi

ISBN 978-92-9142-867-0 (IPU)

### **Muqova fotosurati:**

Kot-d'lvuarining Fuqarolikka ega emaslik to'g'risidagi konvensiyalarga yaqinda qo'shilgani, shuningdek, davlatning fuqarolik to'g'risidagi qonunlarini isloh qilish, minglab fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan qishloqning ko'plab bolalari ham davlat fuqaroligini va boshqa tegishli imtiyozlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarurligini anglatadi.

© BMT QOKB / Greg Konstantin, 2010





Inter-Parliamentary Union

For democracy. For everyone.

☎ +41 22 919 41 50  
📠 +41 22 919 41 60  
✉ [postbox@ipu.org](mailto:postbox@ipu.org)

**Bosh qarorgohi manzili:**  
Chemin du Pommier 5  
Case Postale 330  
1218 Le Grand-Saconnex  
Geneva – Shveysariya  
[www.ipu.org](http://www.ipu.org)



☎ +41 22 739 81 11  
📠 +41 22 739 73 77

**Bosh qarorgohi manzili:**  
Case Postale 2500  
CH-1211 Geneve 2 Depot  
Shveysariya  
[www.unhcr.org](http://www.unhcr.org)